

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida
UDK 42:809

RASULOVA SOXIBA ULUG‘BEKOVNA

Villiyam shekspirning hamlet, daniya shaxzodasi
tragediyasining o‘zbek tiliga bilvosita va
bevosita amalga oshirilgan tarjimasini
qiyosiy tahlil qilish

5A120201 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili)

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
kat.o‘qit. P.Usmon

Samarqand – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. TARJIMA MILLATLAR ORASIDA BEVOSITA MA'NAVIY ALOQA QILISH QUROLI SIFATIDA	
1.1. Tillararo muloqotning mohiyati va xususiyatlari.....	8
1.2. Sharqda tarjimashunoslikning rivojlanishi va uning o'zbek tiliga ta'siri.....	12
1.3. Shekspir komediyalarining tarjimasi kasbiy mahoratining asosi sifatida	17
I bob bo'yicha xulosa.....	19
II BOB. BADIY MATN TARJIMASIDA BEVOSITA VA BILVOSITA TARJIMA	
2.1. Badiiy tarjimaning mazmuni, xususiyati va asosiy shartlari haqida.....	22
2.2. Bevosita tarjimada badiiy uslubning tiklanishi.....	26
2.3. Bilvosita va bevosita tarjimaning badiiy –estetik ahamiyati.....	32
II bob bo'yicha xulosa	
III BOB. SHEKSPIR–UYG'ONISH DAVRINING DAHO TRAGEDIYANAVISI VA HAMLET TRGEDIYASINING G'OYAVIY YO'NALISHI VA MAZMUNI XUSUSIDA	
3.1. Vilyam Shekspirning hayoti va ijodiy faoliyati.....	38
3.2.“Hamlet, Daniya shahzodasi” fojeasining vujudga kelishi va uning Shekspir ijodidagi o'rni.....	53
3.3. Shoh asar “Hamlet” ning qiyosiy tarjimasi haqida.....	64
III bob bo'yicha xulosa	81
XULOSA.....	84
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	87

KIRISH

O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritgan ilk yillardan boshlab maorifga katta e'tibor qaratdi. Shu jumladan O'zbekiston Chet davlatlar bilan xalqaro aloqa qilmasdan turib o'z kelajagini belgilab bera olmasligini tushungan holda, o'z e'tiborini chet el xalqlari tili, madaniyati, san'ati, davlat tuzilishi va joylashuviga qaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov taraqqiyotimizning asosiy yo'nalishini belgilab olishda ta'limning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatar ekan quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tgan edilar: «Milliy tiklanish yo'li yuqori savodxonlik yuksak madaniyat orqali o'tadi. Shuning uchun ham ma'lumot darajasi va professional tayyorgarlik 21-asr arafasida bizning ijtimoiy rivojlanishimizning o'lchovi bo'lib qolmog'i kerak. Bu islohatlarning belgilangan yo'lidan borishining eng yaxshi loyihasidir. Bu sarflangan mablag'lardan vaqti kelib eng ko'p foyda olinadigan yo'nalishidir. Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan kadrlar tayyorlash milliy dasturi ana shu fikrning amaliy tadbiri asosida ko'rish mumkin»[2, B. 84].

Shu sababli O'zbekistonda tarjimashunoslik sohasida ham juda ko'p ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Chunki badiiy tarjimada asliyat ruhini, mohiyatini anglash, matndagi turli tuman elementlarning leksik, frazeologik, grammatik, fonetik funksiyalarini, tushunib yetish, tarjima tilida ularga har tomonlama mos muqobillar topish g'oyat ko'p qamrovli va murakkab jarayondir. Bunda L.S. Barxudarovning ta'biri bilan aytganda, "ikki turli xil tillarning leksik birliklari o'rtasidagi semantik muqobilligini topish muhimdir"

Ingliz tilidagi milliy xos so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qilish usullari va ulargi oid muammolar tilshunoslikning kam o'rganilgan sohalaridan biridir.

Keyingi paytlarda yuzaga kelayotgan lingvistik tadqiqotlarda tarjima muammolariga katta e'tibor berilmoqda. Tarjima tillarining kamoloti uchun zaruriy

vosita sifatida, ularning rivojlanish sur'atini jadallashtiradi, lug'at boyligini oshiradi va takomillashtiradi.

Tarjima inson ma'naviy hayotini boyitadi, ona tilining imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi, uni serjilo qiladi. Shuning uchun hozirgi paytda lingvistikaning eng dolzarb muammolaridan biri tarjimadir. Tarjimaning leksik muammolari esa birinchi qatorni egallaydi.

Tarjima sohasida tilshunoslarimiz ko'pgina yutuqlarga erishgan bo'lsada, milliy xos so'zlar tarjimasi borasidagi ishlar ozchilikni tashkil etadi. Milliy xos so'zlarning o'zbek tilidagi tarjimasi borasidagi adabiyotlarning kamligi va ularning mukammal emasligi bu sohada ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Mavzuning dolzarbligi. O'z oldimizga o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qilingan badiiy asarlarni har tomonlama ko'rib chiqish, tahlil qilish, zarur hollarda ma'lum bir xulosa keltirish, ularni amaliyotga tadbiq qilishdagi muammolarni imkon qadar yechishni maqsad qilib qo'ydek. Jaxon tillarida, jumladan ingliz tilida ro'y berayotgan o'zgarishlar boshqa tillarda ham o'z aksini topmoqda turmush tushunchalari har bir xalqning asriy xayoti, dunyoqarashi, urf-odatlariga singib ketgan. Shunday ekan milliy xos so'zlarni o'rganish uchun ilmiy material bo'lib xizmat qiladi. Chet tilini o'rganishda ikkala til imkoniyatlaridan kelib chiqib, ular tarkibidagi milliy xos so'zlarning, turmush tushunchalarini ifodalovchi so'zlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Har ikkala tilni qiyoslashda bu belgilar muhim ahamiyatga egadir. Bu masalaning dolzarbligi shundaki tarjima jarayonida bir tildagi til birliklarni ikkinchi bir tildagi teng qiymatli til birliklariga almashtirish yoki ikkinchi tildagi muqobil variantni berish zarur, aks holda tarjima g'alaz chiqishi mumkin. Biror asar tarjimasini milliy xos so'zlarsiz o'g'irish qiyindir, turmush tushunchalari ishtirok etgan asar yoki qo'llanmalarni tarjima qilish va ularni kitobxonlarga yetkazish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni hisobga olsak, bu masalaning muhimligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tarjima jarayonida leksik muammolarni o'rganish masalalari o'zbek tilshunosligi va tarjimashunosligi

oldidagi muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shunga ko'ra biz o'z oldimizga quyidagi vazifalarini yoritishni maqsad qilib qo'ydik:

- tarjimada ma'no turlarini o'rganish va ularni tarjimada saqlanishi;
- ma'no va uning tarjimada aks etishi;
- tarjima birliklari va kontekst;
- tarjima jarayonida qo'llaniladigan transformatsiyalar;
- tarjimonning aldoqchi do'stlari va ularning tarjimada berilishi;
- tarjima qilinmaydigan leksika tarjimasi muammolari.
- turmush tushunchalarining shakllanishi;
- milliy xos so'zlar tarjimasi (o'zbek tilidan rus tiliga qilingan badiiy asarlar misolida);
- turmush tushunchalarini ifodalovchi so'zlar tarjimasining ba'zi masalalari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mazkur ishda ilk bor o'zbek tarjimashunosligida bevosita va bilvosita tarjimaning ustunliklari talqin qilinib Vilyam Shekspir asarlari misolida bevosita tarjimaning ustunliklariga oid amaliy va nazariy tavsfiyalar ishlab chiqilgan.

Mavzuning nazariy ahamiyati yuqorida keltirilgan maqsadlardan kelib chiqadi. Bevosita tarjmani o'rganish tarjimashunoslikda olib borilayotgan tadqiqotlarga o'z natijasini o'tkazib tarjima jarayonida yuzaga keladigan tushumvochiliklarni bartaraf etishga yo'naltiriladi. Tarjimashunoslikda ushbu yo'nalishni tadqiq qilishning nazariy ahamiyati badiiy tarjimadagi olib borilayotgan bevosita va bilvosita tarjimalarni nazariy kurslarda tahlil qilinib kelajakdagi tarjimalarga ijobiy tomondan o'z samarasini o'tkazadi.

Mavzuning amaliy ahamiyati. Tanlangan mavzuning ilmiy xulosalardan, amaliy natijasidan, tarjima nazariyasi va amaliyoti kursini o'tishda milliy xos so'zlar xususida o'quv qo'llanma yaratishda foydalanish mumkin. Ushbu masala doirasida qilingan yangiliklar to'g'risida mulohaza yuritsak, izlanish ingliz va o'zbek tillaridagi milliy xos so'zlarning kitobxonlarga muqobil variantlar asosida yetkazib berishda tarjimonning turli xil yo'llari va tarjima jarayonida duch keladigan qator muammolarni o'z ichiga oladi. Tarjima borasida qilingan ishlar

orasida o'zbek va rus tillari misolida muammolar chuqur o'rganilmaganligi bois ilmiy ishni ushbu muammolarni yechishga bag'ishladik.

Tadqiqot obyektlari. Tadqiqot obyektlari qilib, rus tiliga qilingan o'zbek badiiy asarlari, o'zbek va rus tarjimonlarining ishlari olindi.

Tadqiqot metodlari. Ushbu dissertatsiya ishida qiyosiy-solishtirma, tasviriy hamda semantik-uslubiy metodlari qo'llanildi. Shu bilan birga asliyat va tarjima tillari lisoniy vositalarini batafsil tahlil qilish zarurati lingvistik tadqiqotning boshqa ayrim maxsus metodlaridan ham, jumladan komponentlar tahlili metodidan foydalanishni taqozo etdi. Bunday paytda qiyoslanayotgan ikki til birliklarining turli kontekstlarda qo'shimcha ma'no va ma'no belgilari kasb etish holatlari tahlil etiladi. Bir-birini to'ldirishga xizmat qiladigan mazko'r metodlar amalga oshirilgan tarjimalarni har jihatdan puxta va xolis baholash imkoniyatini beradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda bevosita va bilvosita tarjimaning taqqoslangan holda o'rganilganligi buyuk tarjimashunos olimlar G'.Salomov, N. Vladimirova ishlarida kuzatamiz. Mustaqillik davrlarida ingliz tilidan qilingan tarjimalar (1991-2011 yillar). Bu davrning o'ziga hos xususiyatlaridan biri bo'lib, jamiyatda bevosita amalga oshirilgan tarjimalarga ehtiyojning ortib borishi hisoblanadi. Bu kabi tarjimalarda endi mafkuradan holilik va asliyat matnini o'zgarishsiz kitobxonga obyektiv tarzda yetkazish muammosi ko'tariladi. Shuning asnosida, totalitar mafkuraga bo'ysundirilgan tarjimalarni qayta ko'rib chiqish masalasi ko'ndalang turadi. Asta sekinlik bilan milliy tarjima maktabi jonlana boshlaydi. Ammo tarjimachilik sohasi bevosita badiiy tarjimachilik emas, balki, kinofilmlar dublyaji orqali tiklana boshlanadi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

1. Tillararo muloqotning mohiyati va xususiyatlari o'rgangan holda shuni ta'kidlab o'tish lozimki tarjima badiiy ijodning eng mashaqqatli sohasi bo'lib, u kishidan bag'oyat katta bilim egasi bo'lishni taqozo etadi;

2. Shekspir komediyalarining tarjimasi kasbiy mahoratining asosi sifatida doimiy ravishda tarjimashunos tadqiqotcholarni o'ziga jalb qilib kelgan, shuni inobarga olgan holda ushbu magistrli dissertatsiyasida ingliz adabiyotini tarjima

qilishni qiyinlashtiradigan umumiy qiyinchiliklarga katta e'tibor qaratilgan bo'lib Shekspir tomonidan yozilgan asarlar tili yana bir muncha murakkabliklar yaratishi va uning boy leksikasida tilning hamma sathlari uchun xos bo'lgan stilistik hodisalar o'rin egallashi ta'kidlangan.

3. Badiiy matn tarjimasida bevosita va bilvosita tarjimaning o'rni va badiiy tarjimaning mazmuni, xususiyati va asosiy shartlari haqida batafsil to'xtalib badiiy asarni tarjima qilish uchun tilning lug'at boyligi, chunonchi sinonim va omonimlar, kasb-hunar terminlari, dialektal, eskirgan va vulgar so'zlar, erkalash va kichraytirish, qochiriq, matal va idiomalarni hamda so'zlarning musiqiyligiyu, ohangdorligini, ko'p ma'noliligini, tilning talaffuz normalarini, mubolag'a va kichraytirish xususiyatlari, yumor-hazil-mutoyiba formalarini bilish zarurligi ta'kidlangan;

4. Badiiy matn tarjimasida bevosita va bilvosita tarjima holatlarini o'rgangan holda badiiy tarjimaning mazmuni, xususiyati va asosiy shartlari haqida adabiyotshunoslik fanining hozirgi taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, hech bir xalq adabiyotini boshqa adabiyotlardan ajratib olib, alohida o'rganish mumkin emas. Chunki jahon adabiyoti yagona organizm bo'lib, u katta-kichik turli milliy adabiyotlarning o'zaro ta'siri rivojidan tarkib topadi. Kishilar yer yuzining turli mintaqalarida yashab kelishlaridan qat'iy nazar, yaratilgan ma'naviy boyliklarini o'zaro baham ko'rishga intilmoqdalar, bir-birlarining san'atidan, badiiy kashfiyotlaridan zavqlanib, qalban va ruhan yaqinlashib bormoqdalar.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 100 sahifani tashkil etadi.

Dramaturgiya san`atida hanuzgacha Shekspir bilan
hech kim tenglasha olgani yo`q. Uning nomi
yoniga faqat uning o`z nominigina yozish mumkin...
(V.G. Belinskiy)

I BOB. TARJIMA MILLATLAR ORASIDA BEVOSITA MA'NAVIY ALOQA QILISH QUROLI SIFATIDA

1.1. Tillararo muloqotning mohiyati va xususiyatlari

Tarjima – bu yuksak badiiy ijoddir. Ijod bo`lganda ham ba`zan asliyat muallifiga nisbatan ko`proq izlanish va mashaqqat chekishni taqozo etadi. Tarjima lisoniy, adabiy-estetik hodisa, so`z san`atidir. Tarjimon esa ijodkordir.

Millatlar o`rtasida o`zaro aloqa qilishga ehtiyoj kuchaygani sari tarjimachilik faoliyati ham kengayib boraveradi. «Tillardan tillarga tarjima qilish mumkinligini asoslaydigan narsa shuki, jahon xalqlari garchi turli-tuman tillarda so`zlashsalar ham, ammo ularning taffakur qonunlari bir xildir», deb yozadi tarjimashunos olim G'.Salomov. Tarjima ko`p sohali, sertarmoq va murakkab hodisa. Tarjimaning bosh xossasi uni boshqa til vositalari bilan qayta yaratishdan iborat. Ijodiy jarayon so`z san`ati ekanligi hammaga ayon[54, B.31].

Ma'lumki, tarjima bevosita yoki bilvosita amalga oshiriladi. Hozirgi paytgacha qilingan tarjimalar, masalan, rus adabiyoti namoyondalarining asarlari bevosita, ingliz, nemis, fransuz yozuvchilarining asarlari esa bilvosita (vosita til) rus tili orqali tarjima qilindi. Keyingi qator yillarda bevosita chet tillardan qilingan tarjimalar ham paydo bo`ldi. Hattoki ayrim adiblarimiz asliyatdan tarjima qilish maqsadida chet tillarini o`rganishga kirishishdi.

Tarjima badiiy ijodning eng mashaqqatli sohasi bo`lib, u kishidan bag`oyat katta bilim egasi bo`lishni taqozo etadi.

Tarjima teng ma`nolilik (muqobillik) ni taqozo etadi, amalga oshirilgan tarjima asliyatga mazmun jihatdan muvofiq bo`lishi kerak. Bu hodisa hamisha tarjima nazariyasi va amaliyotining asosiy muammolaridan biri bo`lib kelganligi aniq. Tarjimon faoliyatining asosiy mahsuli va sifati ham zotan shunga bog`liqdir.

Tarjima qilinayotgan matn yoki nutqning qandayligidan qat'iy nazar bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilish uchun umumiy bo'lgan ikkita holat mavjud:

1. Dastavval tarjima qilish uchun mo'ljallangan asarni tushunish, uning janrini aniqlash va tahlil qilish lozim. Bu jarayon ona tilida amalga oshiriladi.

2. Asar o'girilayotgan tilda muvofiq ifoda vositalarini topish zarur. Bularga badiiy so'z, so'z birikmalari, grammatik shakllar kiradi.

Tarjima tushunchasining ma'nosi juda keng. Bir tildan ikkinchi tilga badiiy adabiyot, dramatik va nasriy asarlar, fanning turli-tuman sohalariga doir ilmiy va ilmiy-ommaviy kitoblar, diplomatiya hujjatlari, rasmiy qog'ozlar, siyosiy arboblarning maqolalari va notiqlarning nutqlari, gazeta materiallari, boshqa-boshqa tillarda so'zlashuvchi, tarjimonning xizmatiga muxtoj bo'lgan kishilarning suhbatlari tarjima qilinadi, kinofilmlar o'giriladi.

Asl nusxada ifodalangan fikr bo'lak tilda ham xuddi asliyatdagiday to'la, aniq va ta'sirchan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, tarjima o'sha asar o'girilgan tilning andozasiga mos, muvofiq bo'lishi darkor.

Tarjima – forsha «tarzabon» so'zidan arabiylashib o'zgargan. («tarzabon» - chiroyli so'zlovchi, notiq, tili burro kishi degan ma'noni anglatadi). Arab tiliga «tarjumon» shaklida o'tgan, undan «tarjima» yoki «tarjuma» hosil bo'lgan. O'zbek adiblari bunday tushunchani ag'darish, o'girish singari atamalar bilan ifoda etganlar.

Umuman, tarjima deganda bir tilda yozilgan matn yoki aytilgan nutqning boshqa tilda qayta yaratilishi tushuniladi. Shu ma'noda tarjima xalqlar, millatlararo aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Tarjima hozirgi davrda jamiyatimizning juda ko'p sohalarida amalda qo'llanib kelmoqda. Telegraf axborotidan tortib ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarga tarjima vositasida bir joydan ikkinchi joyga yetkaziladi. Tarjimaning turlari juda ko'p: rasmiy xabarlar va gazeta materiallari tarjimasi, siyosiy publisistik adabiyot tarjimasi. Bu sohalarining har biri o'ziga xos uslub va talablarga ega. Tarjima qilishdan maqsad asl nusxani egallash, saqlash va

y etkazishdir, Lekin yangi asar yaratishdan iborat emas. Tarjimaning mohiyati esa, qayta yaratishdan iboratdir.

“Ijodiy jarayon yoki san’at hisoblangan tarjimadan maxsus fan hisoblanmish tarjimashunoslikni bir-biridan farqlamoq lozim. Tarjima nazariyasining vazifasi – asl nusxa bilan tarjima o’rtasidagi nisbat qonuniyatlarini kuzatishdan, alohida xususiy xarakterdan tarjima hodisalaridan tug’ilgan xulosalarni ilmiy ma’lumotlar asosida umumlashtirishdan hamda tarjimachilik amaliyotiga bilvosita ta’sir o’tkazish, uning sifatini yaxshilashdan iborat” [54, B. 149-150).

Xalqlar bir-biridan nima bilan farqlanadi. Millatning eng asosiy belgilaridan biri til ekanligi ma’lum. Chunki muayyan bir xalqqa mansub bo’lgan hamma odamlar o’zlari uchun ona tili hisoblangan tilda so’zlashadilar. Biroq dunyoda qancha xalq bo’lsa, tillarning soni ham shuncha deb xulosa chiqarishga asos bo’lmaydi. Boshqacha aytganda, xalqlar soni bilan tillarning soni hamma vaqt ham bir-biriga mutanosib bo’lavermaydi. Chunki bir qancha xalqlar bir tilda so’zlashishlari ham mumkin.

Masalan, ingliz tilida faqat inglizlarning o’zlarigina emas, balki yer kurrasining turli qismlarida yashovchi boshqa xalqlar ham, jumladan, amerikaliklar, shotlandlar, avstraliyaliklar, zelandiyaliklar, Shimoliy Irlandiyada va boshqa xalqlarning bir qismi ingliz tilida gaplashadilar. Masalan, nemis tili nafaqat german nemislari uchun ona tili hisoblanadi, qolaversa, ushbu til avstraliyaliklar, german-shveysarlar, elzasliklar, lyuksemburgliklar uchun ham ona tili hisoblanadi.

Fransuz tili ham shunday, fransuzlar uchun bu til ona tili hisoblansa, Jazoirda yashovchi xalqlar, kanadada yashovchi xalqning bir qismi ham fransuz tilida so’zlashadilar. Jahonda 2 mingdan ziyod til bo’lgan bir vaqtda bevosita «tildan-tilga» formulasi bo’yicha tarjima qilish amalda nihoyatda qiyin.

Tarjima mamlakatimizdagi qardosh xalqlar o’rtasida do’stona aloqalar o’rnatish va rivojlantirishda barcha milliy madaniyatlarning baynalminal zaminini mustahkamlashda faol rol o’ynaydi.

Tarjima – bu faqat aloqa vositasigina emas, balki o'ziga xos lisoniy-uslubiy va terminologik boyitishning qudratli omili ham hisoblanadi.

Ayniqsa, hozirgi davrda xalqlar o'rtasida hamkorlik, hamjihatlik, o'zaro va har tomonlama aloqalar nihoyatda jadallashib, zo'rayib borayotgan asrda ko'p millatli madaniyatning tarjimasiz taraqqiy etishini tasavvur qilish qiyin.

Yangi avlodni tarbiyalashda adabiyot va tarjima ham shunchalik davlat ahamiyatiga molik ishdir. Bu borada bizning yozuvchilarimiz tarjimachilik sohasida ham barakali mehnat qilmoqdalar.

Tarjimada bir-biriga zid qonunlar asosan 4 tani tashkil qiladi:

1. Tarjima nazariyasi qanday bo'lmog'i kerak. Adabiyotshunoslik asosiga qurilishi kerakmi yoki tilshunoslik zahirida rivojlanishi kerakmi?

2. Tarjimaning xususiyati qanday bo'lmog'i lozim: asar hijjalab, so'zma-so'z tarjima qilinishi kerakmi yoki erkin ijodiy tarjima bo'lmog'i kerakmi?

3. Asl nusxada aks etgan milliy o'ziga xoslikni qanday berish lozim. Tarjimada uning o'zga tilga xos milliy xususiyatlarini berish kerakmi yoki uni o'z milliy andozasiga xos berish kerakmi?

4. Hamma narsani bilib bo'ladi, hamma narsani tarjima qilish mumkin yoki aksincha, til fikrning qolipi emas, balki dunyoni takrorlanmas bir tarzda o'ziga xos idrok qilishdan iboratdirki, shuning uchun bir tildan boshqa tilga tarjima qilish mumkin emas.

Tarjimashunos olim A.D. Shveyser o'zining «Tarjima jarayonini lingvistik o'rganish muammolari» maqolasida tarjima nazariyasining lingvistik yo'nalishini topish, belgilash va rivojlantirishda katta ahamiyatga ega, u hayotga real vaziyatga murojaat qilishdek g'oyat muhim omilni inkor etadigan tarjima jarayoni modelini rad qilish kerak, degan fikrni ilgari suradi.

1970 yilda Leypsigda bo'lib o'tgan lingvistik tarjima nazariyasiga bag'ishlangan simpoziumda tarjima masalalari A.D. Shveyser qo'ygan tarzda emas, balki boshqacharoq yo'nalishda muhokama qilindi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Ikki yoki bir nechta tilda lisoniy va uslubiy unsurlarning ekvivalentlik (muqobil) munosabatlarini o'rganish.

2. Tarjima jarayonining qonuniyatlari tamoyillarini ishlab chiqish.

3. Tarjimalar matnini tahlil qilish sxemalarini (andozalarini) yaratish.

Tarjimashunoslik fani umumfilologik aspektda o'rganiladi. U tilshunoslik, adabiyotshunoslik, stilistika fanlari bilan uzviy bog'liq.

Tarjimashunoslik fani – tarjima qonuniyatlari, tarjima qilish tamoyillarini o'rganadigan filologik fan hisoblanadi.

1.2. Sharqda tarjimashunoslikning rivojlanishi va uning o'zbek tiliga ta'siri

Tarjima insoniyat faoliyatining eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, u tufayli biz insoniyat taraqqiyoti tarixini barcha tafsilotlari bilan ochiq-oydin tasavvur etamiz.

Mamlakatimizda tarjima nazariyasi mustaqil filologik soha sifatida asosan XX asrning 50-yillaridan e'tiboran shakllana boshlagan bo'lsa-da, tarjima amaliyoti bir necha ming yillik tarixga ega. Bundan tarjimachilik ming yillar mobaynida nazariyasiz rivojlanib kelgan ekan-da, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Arab, fors, hind, ozarbayjon, turk va rus tillaridan juda ko'p ilmiy, tarixiy, siyosiy, diniy, falsafiy, badiiy kitoblarni o'z tillariga o'girib kelgan tarjimonlarimiz garchi yozilmagan, tartibga keltirilmagan, umumlashtirilmagan bo'lsa-da, ko'p asrlar mobaynida qabul qilingan, rioya etilgan ma'lum tarjimachilik aqidalariga, qoidalariga asoslanib ish ko'rganlar. 1682 yilda Abdulqosim Firdavsiyning Shohnomasini fors – tojik tilidan o'zbek tiliga Mulla Xomut Oxund nazmiy usulda tarjima qildi. Keyinchalik Mullo Nodir Muhammad Buxoriy Shohnomani nasr bilan o'zbek tiliga o'girdi. Mahmud Qoshg'ariy XI asrda "Devoni lug'oti turk" asarini arab tiliga o'zi 1067-77 (hijriy 496) o'giran. Bu tilshunoslikka xos asar bo'lib, o'z davrining ensinklopediyasi sanaladi. X-XII asrda Ar-Raduyeniy "Tarjimon-ul-baloga" ("Suxandonlik tarjimasi") asarini yaratadi.

XIV-XVI asrlarda Shoir Kutb Nizominiyning "Xisrav va Shirin", Xaydar Xorazmiy uning "Maxzan-ul-asror" dostonining ayrim boblarini, Ma'sud Ibn

Axmad Sa'diyning "Bo'ston" asarini, Sayfi Saroyi uning "Guliston" ini o'zbek tiliga tarjima qiladi.

Sayfi Saroiy - iste'dodli shoir - tarjimon. U 1390-91 yillarda Sa'diy Sheroziyning (eron yozuvchisi) mashxur "Guliston" asarini o'zbek tiliga tarjima qildi. Yuqorida keltirilgan faktlar ilk tarjima namunalardandir.

O'zbekistonda tarjima tarixi XI-XII asrlardayek shakllana boshlagan, misol uchun: Maxmud Koshgariy asarlari ("Devoni lug'oti turk" asarida) ilk tarjimaning nazariy va amaliy muammolarini ko'ramiz. Keyinchalik Abu Ali Ibn Sino, Ulug'bek, Alisher Navoi, Zaxiriddin Muhammad Bobur izlanishlarida tarjimaga bo'lgan katta e'tibor yanada yaqqolroq ko'rinadi. XX asrda "O'zbekistonda 1920 yilda 1 yillik tarjimonlar tayyorlash" kursi ochildi. (Sharq instituti koshida).

O'zbek tarjimashunosligida katta o'rin tutadigan tadqiqotchi olimlar ham 1930 yillarda ko'pchilikni tashkil etdi.

Ular orasida yozuvchi, shoirlar-adiblar ham bor edilar. Jumladan, A.Cho'lpon, S.Valiyev, A.Qodiriy, Roshk, Sanjar Siddiq, Ismoil Obid, Elbek, A'zam Ayub, Usmon Nosir, Xamid Olimjon, G'afur G'ulom, Mirzakalom Ismoiliy, Abdulla Kahhor, Mirtemir, Oybek, S.Abdulla, M.Raxmon, A.Muxtor kabilar sermaxsul faoliyat olib bordilar va o'zbek tarjimashunoslik maktabiga asos soldilar.

O'zbek tarjimashunosligida o'ziga xos yo'nalish yaratgan zabardast olim G'.Salomov va uning shogirdlari tarjimaning 1960 yillardan buyon ravnaqiga beqiyos hissa qo'shib kelmoqdalar. Mazkur tarjimashunos-olim boshchiligida 1969-1970 yillarda O'zDU qoshida tarjima nazariyasi kafedrasini tashkil etildi.

Ushbu kafedradan shu kungacha yuzlab fan kandidatleri va o'nlab fan doktorleri yetishib chiqdilar.

Sanjar Siddiq o'zbek tarjimashunosligining asoschilardan biridir. U 1936 yildayoq "Adabiy tarjima san'ati" asarini yaratadi (Toshkent, O'zbek davlat nashriyoti, 1936). Unda tarjima nazariyasining eng dolzarb masalalari yoritilgan edi.

Keyinchalik tarjimaning nazariy masalalari Asqad Muxtorning 1952 yilda Sharq Yulduzi, 7-sonida chop etgan "Badiy tarjima maxoratini egallaylik" nomli maqolasida xam rivojlantirilgan.

Ilmiy tadqiqot ishlari borasida Jumaniyoz Sharipov, G'.Salomov, M. Komilov va boshqalar tarjima nazariyasi muammolariga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib bordilar, doktorlik ishlarini amalga oshirdilar, ularning ilmiy izlanishlari o'zbek tarjima maktabi uchun poydevor yaratdi.

XVIII asrda rus yozuvchisi va tarjimon Trediakovskiy o'zining "Muxabbat oroliga safar" asarini yozgan so'z boshida badiy tarjima nazariyasiga oid qimmatli fikrlarni aytgan edi. "Tarjimon ijodkorlardan faqat o'z nomi bilangina farq qiladi xolos" deb yozadi u so'z boshida.

O'zbek tarjimachiligi tarixida Ikkinchi jahon urushi davri alohida bosqichni tashkil qiladi. Urushning dastlabki kunlaridanoq, o'zbek tarjimachiligi yangi, o'ziga xos bir taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Bu davrda yangi bir yo'nalish, yangicha ruh paydo bo'ldi va butun urush yillarida bu ruh – tarjimachilikning yetakchi xususiyati sifatida amal qildi. Bu – jangovorlik ruhi edi. Shuning uchun bu davrda tarjima qilingan asarlar asosan urush mavzusi edi.

Tarjima o'zbek adabiy tili rivojiga sezilarli ulush qo'shdi. Tarjima tufayli o'zbek tilida shu paytgacha ifodalanmagan reallik har xil turmush tarzlari, turli xalqlar hayoti qalamga olindi, tilimizga qanchadan-qancha realiyalar (xos so'zlar) iboralar kirib keldi.

Filologiya fanlari doktorlari J.Sharipov, N.Vladimirovalar tarjima sohasida jiddiy izlanishlar olib bordilar.

N.Vladimirovaning «Rus tilidan o'zbek tiliga badiiy tarjimaning ba'zi bir masalalari», J.Sharipovning «She'riy tarjimaning ba'zi masalalari»degan monografiyalari chop etildi. Bu yillarga kelib tarjimashunoslik fan sifatida shakllandi.

Toshkentda o'tkazilgan Osiyo va Afrika yozuvchilarining konferensiyasidan keyin o'quvchilarning chet el adabiyotiga bo'lgan qiziqishi yanada ortdi.

Fransuz, ingliz, nemis, yapon, hind, vietnam, koreys, mug'ul, xitoy, arab, chech, turk tillarida yaratilgan asarlarning tarjimalari paydo bo'ldi.

O'zbek xalqining xorijiy xalqlar bilan o'zaro hamkorligi va adabiy aloqalari uzoq o'tmishga borib taqaladi. O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi, qadimda Yunoniston va Xitoy, Hindiston va Eron madaniyati bilan yaqindan aloqada bo'lgan.

Tarjima tufayli buyuk so'z ustalari yaratgan bebaho asarlarni o'zbek o'quvchilari o'z tillarida o'qishga muyassar bo'lib kelmoqdalar.

Tarjima internatsionalizm va xalqlar do'stligi quroli hisoblanadi. Ijtimoiy hayotning qaysi bir jabhasiga qaramang, u yerda tarjimaning hayotbaxsh ta'sirini ko'ramiz. Tilda, tafakkurda, madaniy, adabiy hayotda, san'atda hamma joyda uning o'ziga xos ta'siri sezilib turadi. O'zbekistonda tarjimachilik ishi keng yo'lga qo'yilgan.

Son-sanoqsiz rasmiy hujjatlar, axborot, maqola, bayonotlar, intervyulardan tashqari, juda ko'p tarjima asarlari bosilib chiqmoqda.

Ernest Xemingueyning «Chol va Dengiz», «Alvido qurol!» romanlarini rus tilidan o'zbekchaga tarjimon I.G'ofurov mahorat bilan o'girdi. O'n yillik tinimsiz ijodiy Mehnatdan keyin shoir Erkin Vohidov Gyotening «Faust»ini o'zbek tiliga tarjima qildi. Asar o'ziga xos bir nazmiy tarannum bilan o'zbekchaga o'girildi. Nemis tili mutaxassisi Poshali Usmon tomonidan Respublikada birinchi bo'lib Gyotening «Faust» asarining tanqidi berildi. Ayni paytda P.Usmon Erkin Vohidovdan so'ng «Faust» tragediyasining badiiy filologik tarjimasining birinchi qismini yaratdi va uni nashrga tayyorladi. Jahon adabiyotining durdonalaridan biri sanalmish «Ilohiy komediya»ni Abdulla Oripov o'zbek tiliga tarjima qildi. Jahon klassik adabiyotining nodir asari hisoblanmish bu asarni o'zbek kitobxonlarga o'z tillarida o'qib, undan bahra oldilar.

Shu bilan birga, yosh tarjimon kadrlarni tayyorlash va G'arbiy Yevropa progressiv adabiyotidan muntazam ravishda tarjimalarni e'lon qilish kabi xayrli ishlar yo'lga qo'yildi.

Umuman, bugungi kunda ham, Chet el va o'zbek xalqi o'rtasidagi aloqalar kundan-kunga rivoj topmoqda. Tarjima amaliyoti va nazariyasi, sohalari, tarjima turlari, janrlari, bularning barchasi bir-biri bilan bog'liq kompleks problema hisoblanadi. Ana shu yaxlit muammoning asosiy komponentlaridan biri-tarjimon kadrlar tayyorlash muammosidir. Bu masalani hal qilmay turib, tarjimalarning sifatini yaxshilab bo'lmaydi.

Tarjima mutaxassislaridan Isaak Zinger: "Tarjimon sinchkov o'quvchi, ajoyib uslubchi, so'z ustasi, psixolog, har tomonlama bilimdon bo'lmog'i kerak", deb ta'kidlaydi.

"Turli xalqlar adabiyotlarining tarjima tarixida butun ongli hayotini «o'zgalar»ning asarlarini tarjima qilishdek ezgu ishga qo'l urgan talantli kishilarni topsa bo'ladi", deydi tarjimashunos olim G'.Salomov. Rus shoirlari V.A.Jukovskiy, B.Pasternak, M.Loziinskiy, Lev Penkovskiy; arab olimi va yozuvchisi Sulaymon al-Bo'stoniy; nemis adabiyotchisi Martin Lyuter; o'zbek shoiri va tarixchisi Muhammadrizo Ogahiy; rus olimi Boris Smirnov, professor, turkshunos S.Ivanov, professor Ye.E.Bertels; atoqli qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov va boshqalar shular jumlasidandir [54, B .182].

O'zbek adabiyoti asarlarini jahon xalqlari tillariga tarjima qilib tarqatishda xizmat ko'rsatgan barcha ijod ahli chuqur hurmatga sazovor. Bulardan mashhur «Boburnoma» asarini ingliz tiliga tarjima qilgan Jon Leyden, Vilyam Erskin, Anetta Beverij xonim; fransuzchaga o'g'irgan Pave De Kurteyl; nemis xalqini Alisher Navoiy she'riyati bilan tanishtirgan Alffed Kurella, Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanini nemis tiliga tarjima qilgan N.Tun kabi va boshqa ko'plab tarjimonlarning nomlarini keltirish mumkin.

Ozarbayjonlik tarjimashunos olim B.Tohirbekov shunday fikrlarni bildiradi: "...Tarjimonlarni o'qitib tayyorlanadi, hamma gap shundaki, tarjimon bo'lish uchun tahsil ko'radilar, zotan, bittadan ko'p tilni egallash tarjima qilish uchun faqatgina zaruriy, lekin sira ham yetarli bo'lmagan shart.

Tarjimonning professional ko'nikmalari uning o'qishi va mustaqil mutolaasi natijasida yoki har ikkala usulni qo'shib olib borish orqali egallanadi, sayqallanadi, takomillashadi.”[61]

Yuqorida keltirilgan fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkin: Tarjima madaniyatini yuksaltirmay turib – umumiy madaniy saviyani ko'tarish mumkin emas.

1.3 Shekspir komediyalarining tarjimasi kasbiy mahoratining asosi sifatida

Shekspir tarjimonlar uchun asarlarini tarjima qilish qiyin bo'lgan ijodkorlar safiga kiradi. U asarlarida qo'llagan leksik birliklar nuqtai nazaridan (29.066 so'z), dunyoda birinchi o'rinlardan birini egallaydi. Shekspir o'z asarlarida 884.647 so'z qo'llaydi, ulardan 680.755 tasi lirik, 203.892 tasi esa nasriy matnlarga tegishli. Uning pyessalarida qahramonlari tomonidan 31.959 monolog ishlatilgan bo'lib, undan 21.726 tasi she'riy, 10.062 tasi nasriy, 171 tasi esa aralash shaklga ega. Uning leksikoni (29.066 so'z) va haqiqiy qo'llagan so'zlarini (884.647) solishtirib, V.A. Xomyakov [63, B. 51-55]. Shekspir tilining eng asosiy xususiyatlaridan biri- Shekspirgacha bir, yoki bir nechagina ma'noda qo'llanilgan so'z va so'z birikmalarining ma'nolarini kengaytirish hodisasi haqida gapiradi.

Ingliz adabiyotini tarjima qilishni qiyinlashtiradigan umumiy qiyinchiliklarga Shekspir tomonidan yozilgan asarlar tili yana bir muncha murakkabliklar qo'shadi: uning boy leksikasida tilning hamma sathlari uchun xos bo'lgan stilistik hodisalar o'rin egallaydi [35, B. 327]. Buning ustiga Shekspir turli xil neologizmlar yaratadi, ko'p ma'noli, polisemik va sinonimik so'zlarni ko'p ishlatadi.

Shekspir pyessalarining tili u ishlatgan metafora va uslubiy bo'yoqdorliklar evaziga nihoyatda go'zal va jilvadordir. Uning nisbatan yoshlik chog'larida yozgan asarlarida bu narsa o'sha vaqtlarda urf bo'lgan balandparvoz, evfuiztik usulga amal qilishdan paydo bo'lgan bo'lsa, uning nisbatan yetuklik yo'llarida yozilgan asarlarida bu narsa uning qahramonlari nutqlaridan munosib o'rin egallaydi. Metafora va allegoriyalar tushunish uchun qiyin uslubiy birliklardir. Shekspir qo'llagan metaforalarni to'liq ma'noda tushunish uchun V.P. Komarova [34, B.

200], XVI asrda ishlatilgan ingliz tilining o'ziga xos xususiyatarini o'rganib olib, uning asarlarini asliyatda o'qishni maslahat beradi. Shekspir tilini to'g'ri tushunish uchun Edvin Ebbotning "Shekspirning grammatikasi" degan asarini o'qib chiqish va "Shekspir asarlarining lug'atlari"dan keng foydalanish kerak.

Shekspir o'z asarlarini to'rt yuz yilcha oldin yaratgan. Demakki, bu o'rinda tarjima jarayonda o'sha davr shukuhini saqlab qolish kerakmi, bu narsa zamonaviy kitobxonga asarni to'g'ri tushunishda qanchalik yordam berishi mumkin degan savol tug'iladi. Bundan tashqari, Shekspir pyessalarida qo'llagan qurilmalar – turli ko'rinishdagi she'riy nutqda nasrning qorishib kelishini tarjimasi jarayonida ham ancha qiyinchiliklar paydo bo'ladi.

Shekspir asarlari, avvalambor, teatr uchun yozilgan. Sahna asri esa oddiy va tomoshabinga tushunarli bo'lishi lozim. Bunda, tarjimaning aniqligi, matndagi jonlilikni yo'qotib yuborishi mumkin, boshqa tomondan esa tarjima qilingan matnni tushunishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

Tarjima jarayonida qiyinchiliklar tillar tegishli bo'lgan madaniyatlar o'rtasidagi o'ziga xos xususiyatlarning to'qnashuvi natijasida paydo bo'ladi. Omadli tarjima chiqarishdagi eng muhim muammolardan biri til to'siqlari sanaladi. Tarjimon ishini tillarning lug'at boyligi nuqtai nazaridan farq qilishi bir tomondan, grammatik tomondan o'ziga xosligi boshqa tomondan, nutq uslublarining o'xshamasligi uchinchi tomondan qiynab qo'yishi mumkin.

Shekspir asarlarining qilingan tarjimalarini kuzatar ekanmiz, bir-biriga zid bo'lgan ikkita asosiy yo'nalishga e'tibor qaratishimiz to'g'ri bo'ladi. Ma'lum bir tarjimonlar, asar tarjimasi jarayonida, garchi bu asarning umumiy va tag ma'nosiga ta'sir qilsa ham, shaklni saqlab qolaman deya, uni so'zma-so'z tarjima qilgan bo'lsalar, ikkinchi guruh olimlari, asar tarjimasida asarning "ruh"ini tarjima qilishga harakat qilib, o'z tillarining qonuniyatlariga bo'ysungan holda asarning ma'nosini tarjima qilishga harakat qilganlar.

Bugungi kun tarjimashunosligi sohasida bir-biriga qarama-qarshi ma'nolarni anglatgan "so'zma-so'z tarjima" va "erkin tarjima" degan ikki atama keng uchramoqda. Bu ikki tarjima usullaridan qaysi biri eng to'g'ri ekani haqidagi bahslar

ikki ming yildan beri davom etayotgan bo'lib, hozirga qadar o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

XX asrda tarjima san'ati alohida ko'tarilish bosqichiga erishdi. 1920-1930-yillarda yashagan tarjimonlar tarjimada ilmiylik prinsipiga rioya etish haqida gapira boshladilar. Ularning fikricha ilmiylik atamasiga asliyat tilda mavjud bo'lgan barcha formal elementlarning tarjima tiliga aniqlik va rasolik bilan tarjima qilinishida deb hisoblaydilar.

Tarjima sohasida yangi davr boshlandi deb hisoblash shu vaqt uchun urfga kiradi, sababi, she'riy tarjima bilan asliyat matniga xos bo'lgan qurilmaning to'liq tahlil etilishi orqali uning aniq qayta yaratilishini ta'minlash mumkin deya hisoblanadi. Tarjimon o'z oldiga she'riy asar ritmikasi, misralar soni, qofiyalanishini to'g'ri tarjima qilish vazifasini qo'yardi [66, B. 383].

XX asrning boshlarida Shekspir ijodiga mansub pyessalarning alohida tarjimalari paydo bo'la boshladi. 1930-yillardan boshlab, to 1956 yilgacha Shekspir asarlarining to'liq to'plami nashr ettirila boshlandi. 1957-70 yillarda M.Donskaya, Yu.Korneyev, M.Loziinskiy, S.Marshak, P.Melkova, B.Toma, Shevskiy, T.Shepkina-Kupernik kabi eng sara tarjimonlar tomonidan amalga oshirilgan tarjimalardan tashkil topgan Shekspir asarlarining rus tilidagi yangi to'plami ommaga taklif etildi.

Shunday qilib, XX asrda Shekspir asarlarining yangi tarjimalari paydo bo'la boshladi, buning ustiga bu tarjimalar rus tiliga bir necha martadan o'girilardi.

Bu davrda qilingan tarjimalarning omadli chiqqaniga asosiy sabab, tarjimonlar faqatgina shaklni saqlash emas, asliyat tili uslubi, til xususiyatlari, muallif uslubini o'zida mujassam etgan tarjimalar yaratishni nazarda tutgan zamonaviy tarjima nazariyasi qoidalariga keng amal qilishadi. Buning natijasida asliyat matni ruhiyati tarjimaga ham aniq ko'chirish imkoni paydo bo'ladi.

I bob bo'yicha xulosa

Ushbu bobga xulosa yasab shuni ta'kidlab o'tish joizki, jaxon sivilizasiyasida adabiyot, san'at va fanning rivojlanishiga tarjima juda katta ta'sir ko'rsatgan. Qadim zamonlardan tarjimachilik kishilar nazarida ikkinchi darajali

kasb sifatida qarab kelingan bo'lsa ham hayotning barcha jabxalarida ishlatilib kelingan.

Tarjima tarixiga nazar tashlar ekanmiz qaysi davlatda yoki xududda tarjima rivojlangan bo'lsa, moxir tarjimonlar to'plangan bo'lsa aynan o'sha joyda ilm-fan, adabiyot, san'at va madaniyat taraqqiy topgan.

Antik davrdan boshlab qadimgi Gretsiya hududida taraqqiy topgan tarjima sa'nati milodning ilk asrlarida Rim imperiyasi rivojiga katta xissa qo'shdi. O'rta asrlarda(VIII-XI) Bog'dod tarjima maktabi O'rta Osiyo rivojiga katta xissa qo'shgan, o'rta asr sharq mutafakkirlari tarjimonlik maxoratini dunyoga tanitgan ilmiy, dunyoviy asarlar Yevropada ilm-fan, adabiyot va san'at rivojiga ulkan xissa qo'shgan. Bog'dod tarjima maktabi ishini davom ettirgan xolda Yevropada uyg'onish davrida (XII-XIV) Toledo tarjima maktabi tarjimonlari o'zlarining sharq mutafakkirlari asarlari tarjimalari bilan jaxon sivilizasiyasi rivojiga beqiyos xissa qo'shganlar.

O'zining uzoq tarixiga va rivojlanish bosqichlariga ega bo'lgan tarjima faqatgina XX asda dunyo olimlari, tilshunoslari tomonidan mustaqil fan sifatida tan olindi. XX asrning o'rtalariga kelib tarjimashunoslik fani rivojlana boshladi. Fanning asoschilari sifatida buyuk tarjimashunos olimlar V.Komissarov, A.Fyodorov, L. Barxudarov, Resker, Shveyser, Minyar-Beloruchev, Yu.Nayda, J.Munen, G'.Salomov, J.Sharipov, N.Vladimirova va b. mehnatlari tahsinga sazovordir.

1954 yilda Bryuselda betakror tarjimon Pyer Fransua Kaye tashabbusi bilan ochilgan Xalqaro tarjimonlar Federasiyasi (**FIT**- F'ed'eration Internationale des Traducteurs, International Federation of Translators, der Internationale Uebersetzerverband- Pierre-Fransois Caille) dunyo hamjamiyatini tarjimonlik kasbiga nisbatan hurmat bilan qarashini, tarjimonlarning hayot tarzini yaxshilashga va ularning mehnat bozoridagi ustunligini ko'rsatishga erishdi.

Ikkinchi Jahon urushidan keyingi ochilgan ko'plab xalqaro tashkilotlar (BMT, NATO va b.), o'tkazilgan qator konferensiyalar tarjimonlik kasbiga bo'lgan talabni yaqqol ko'rsatib berdi va shuning natijasida dunyoning e'tiborli oliy o'quv

yurtlarida, til institutlarida tarjimonlik kurslari va yo'nalishlari ochildi va professional tarjimonlarni tayyorlay boshladi.

Shunday qilib tarjima uzoq tarixga ega bo'lsa ham XX asr tarjimonlik kasbiga nisbatan insonlarning qarashlarini o'zgartirdi va ushbu yo'nalish fan sifati shakllantirilib tubdan isloh qilindi.

II BOB. BADIY MATN TARJIMASIDA BEVOSITA VA BILVOSITA TARJIMA

2.1. Badiiy tarjimaning mazmuni, xususiyati va asosiy shartlari haqida

Adabiyotshunoslik fanining hozirgi taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, hech bir xalq adabiyotini boshqa adabiyotlardan ajratib olib, alohida o'rganish mumkin emas. Chunki jahon adabiyoti yagona organizm bo'lib, u katta-kichik turli milliy adabiyotlarning o'zaro ta'siri rivojidan tarkib topadi. Kishilar yer yuzining turli mintaqalarida yashab kelishlaridan qat'iy nazar, yaratilgan ma'naviy boyliklarini o'zaro baham ko'rishga intilmoqdalar, bir-birlarining san'atidan, badiiy kashfiyotlaridan zavqlanib, qalban va ruhan yaqinlashib bormoqdalar.

«Kundalik aloqa vositasi bo'lgan tilga nisbatan badiiy adabiyot tili - deb yozadi A.V.Fedorov,- bu so'z ustalari tomonidan qayta ishlangan tildir[30].

Tarjima millatlar orasida bevosita ma'naviy aloqa qilish quroli. Chunki u madaniy boyliklar, kishilarning ko'p asrlik ezgu armonlari, g'oyasi va qarashlari mujassamlangan asarlarni o'zga til sohibi bo'lmish xalqqa yetkazadi, xalqning ko'ngil daftarini namoyish etadi.

Jahondagi turli-tuman tillarda yaratilgan badiiy adabiyot asarlari katta tarjima yo'lida ayribosh qilinadi. Tarjimasiz, faqat o'z ichki resurslari hisobigagina rivojlanadigan, uzoq va yaqin boshqa xalqlar bunyod etgan madaniy boyliklardan bahramand bo'lmagan «sof» milliy «tiniq» madaniyat, adabiy o'zgarmas «toza til» yo'q, bo'lishi ham mumkin emas.

Agar tarjima bo'lmaganida milliy madaniyatlar va insoniyatning buyuk daholari bunyod qilgan o'lmas fan va san'at obidalari yakkalanib qolgan bo'lar edi.

Tarjima internasionalizm va xalqlar do'stligi quroli. Tarjima yo'li bilan milliy madaniyatlar bir-birlarini boyitadilar. Tilda, tafakkurda, madaniy adabiy hayotda, san'atda hamma joyda uning o'ziga xos ta'siri sezilib turadi. Tarjima, ayniqsa so'z san'ati bo'lgan badiiy adabiyotda katta o'rin tutadi.

Qardosh xalqlar adabiyoti va jahon adabiyoti namunalarining o'zbek tiliga tarjima qilinayotganligi tarjimashunosligimizning katta muvaffaqiyatlar bilan olg'a rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Milliy madaniyatimizning jahon xalqlari

madaniyatlarining eng yaxshi an'analari bilan yaqinlashuviga, xalqlar o'rtasidagi do'stlikning kuchayishiga va o'zbek kitobxonlarining jahon adabiyoti namunalaridan bahramand bo'lishiga xizmat qiladi.

Zotan, fan, madaniyat va texnika sohasida ro'y berayotgan aksariyat olamshumul hodisalar bevosita tarjima tufayli ommalashadi. Badiiy tarjimaning tarbiyaviy, siyosiy, g'oyaviy va estetik ahamiyati hamda ma'rifatparvarlik rolining bundan keyin ham tobora oshib boraverishi davr, zamon talabidan kelib chiqadi.

Xalqimizni jahon fani, texnikasi, madaniyati va ijtimoiy fikr taraqqiyotining buyuk yutuqlaridan bahramand qilish, xalqlar do'stligi ruhida tarbiyalash kabi muqaddas vazifani amalga oshirishda tarjimachilik ishi g'oyat katta ahamiyatga ega.

Bizningcha, ham to'g'ri va chiroyli tarjimagina mukammal va ideal san'at asari bo'la oladi. Bunday tarjima yaratishning o'zi esa chinakam san'atdir. Bunday san'at tarjimondan to'g'ri tarjima qilish doirasida chiroyli tarjima etishni va chiroyli tarjima etish doirasida to'g'ri tarjima qilish mahoratini egallashni talab etadi. Tarjima amaliyotida quyidagi xilma-xilliklar uchrab turadi.

1. Tarjimonlarning tajribasi, malakasi va e'tiqodi bir-biridan jiddiy farq qilishi natijasida kelib chiqadigan tafovutlar.

2. Tarjimonlarning tarjima qilish prinsiplarini har xil talqin etishlari tufayli kelib chiqadigan tafovutlar.

3. Tarjimonlarning uslubi muallif uslubiga ta'sir etishi natijasida tabiiy ro'y beradigan tafovutlar.

Ana shu uchta sabab tufayli muayyan bir asarni masalan o'nta tarjimon o'z tiliga o'g'irsa, natijada bir-biridan farq qiladigan o'n xil tarjima hosil bo'ladi.

Badiiy tarjimada muallif uslubini har bir tarjimon o'ziga xos uslub bilan tiklashga intilishi tarjimachilik amaliyotida yuz berayotgan ana shu tafovutlarga sabab bo'ladi.

Agar tarjimada muallif uslubi to'g'ri berilmagan bo'lsa, bunday tarjimaning asl nusxaga mosligiga aslo ishonib bo'lmaydi. Unda tarjimon, beixtiyor muallifning o'rniga o'zini qo'ygan bo'ladi. Tarjimonning ikki tilni mukammal

bilishi, turmush tajribasi, badiiy mahorati hamda yozuvchi uslubini to'la egallashi va buni tarjimada qayta tiklay olishi qanchalik zarur ekanligini yaqqol ko'rsatadi.

«Uslub» tushunchasi tor ma'noda talqin qilinganda asarda tasvirlangan personajlar nutqining o'ziga xos uslubi tushuniladi. Har bir so'zning o'z uslubi borki, albatta imlo lug'atidan so'zlarga qarab, ularning uslub xususiyatlarini aniqlayman deyish behuda urinish bo'lar edi. So'zlarning uslub xususiyatlari badiiy matn ichida, so'zlarning birikishida ochiladi.

Masalan: «o'lmoq» so'zi «dunyodan o'tmoq, oyoq cho'zmoq, ko'z yumdi, abadiy uyquga ketdi, joni uzildi, kuni bitdi, bandalikni bajo keltirdi, asfalasofilinga jo'nadi» kabi birikmalarning har birida o'ziga xos stilistik ma'noga ega. Bu stilistik variantlarning har birini o'z o'rnida ishlatishning katta amaliy ahamiyati bor, basharti ular noo'rin qo'llansa qo'pol xato kelib chiqishi mumkin. Masalan «dunyodan o'tdi» o'rniga «joni chiqdi» deb bo'lmaydi[55, B. 109-143].

Quyidagi misol tarkibida qo'llanilgan «Iuda» (inglizcha "Judas") suzi uz ustoz Iso payg'ambari o'ttiz dona kumush tanga badaliga dushmanlariga xoinona sotgan Iudi Iskariot haqidagi Injil afsonasiga bog'lik bo'lib, bu nom xoinlik va sotqinlikni obrazli ifoda etadigan vositga aylanib qolgan:

Досить идёшь, Иуда?

Chaqqani ketayapsanmi, xoin?

Tarjimadagi «xoin» so'zi fikrni obrazli ifoda etmasada, muallif nazarda tutgan mazmunini tegishli oxang yordamida kuchaytirib, tasviriy tarzda qayta yaratgan. «Iuda»ning Injil afsonasi bilan bog'liqligidan ko'pchilik o'zbek kitobxonlarining bexabarligidan, mazkur so'zni ular xoinlikni anglatadigan oddiy lisoniy vosita sifatidagina qabul qilishni ko'zda tutuadigan bo'lsak, tarjima sezilarli yo'qotishga olib kelmagan.

Badiiy asarni tarjima qilish uchun tilning lug'at boyligi, chunonchi sinonim va omonimlar, kasb-hunar terminlari, dialektal, eskirgan va vulgar so'zlar, erkalash va kichraytirish, qochiriq, matal va idiomalarni hamda so'zlarning musiqiyligiyu, ohangdorligini, ko'p ma'noliligini, tilning talaffuz normalarini, mubolag'a va kichraytirish xususiyatlari, yumor-hazil-mutoyiba formalarini bilish zarur.

Tarjimashunos olim G'aybulla Salomov, badiiy asarni qayta yaratish jarayonida amalga oshadigan uch bosqich to'g'risida to'xtalib, shunday fikrni keltiradi:

1. Asl nusxani tarjimon qanday qabul qilishi (tushunishi).

2. Asarni real, avtorning maqsad-muddaosi va uning o'ziga xos uslubini qanday talqin qilishi.

3. So'z san'ati namunasini o'z ona tilida qayta tiklashda muqobil vosita topa olishi.

Badiiy tarjimani ilmiy tavsiflash shundan iboratki, bunda so'zni so'z bilan emas, balki ma'noni ma'no bilan, ohangni ohang bilan, obrazni obraz bilan, yumorni yumor bilan berish muhim ahamiyatga egadir».

Badiiy tarjimaning boshqa turdagi tarjimalaridan farqi shundaki, so'z, jumla yoki butun bir asarni to'g'ri o'girish kifoya emas. Bunda tarjimon ham san'atkor bo'lishi lozim »[55].

Shekspirning «Hamlet» tragediyasida ko'pchilik personajlar Hamletga "My lord" deb murojaat qilgan ekanlar, bu o'rinda o'zbeklar albatta «Shaxzodam» so'zidan foydalanishni ma'qul ko'radilar. Ammo o'zbek tarjimoni rus san'atkori ta'sirida so'zni transliteratsiya yo'li bilan "милорд" shaklida talqin etadiki, mazkur so'z keng kitobxon ommasiga tushunarli emas. "Milord" so'zi inglizxabon xalqlar bilan ko'p asrlardan buyen munosabat va muloqotda bo'lib kelgan rusmlarga birmuncha tushunarli bo'lgani uchun M.Shayxzoda tarjimasiga asos bo'lgan ruscha tarjimaga e'tiroz bildirmaslik mumkin. Ammo qayd etish lozimki, asarni boshqa bir ruscha tarjimasida (M. Lozinskiy qalamiga mansub) "милорд" emas, balki "мой принц" birikmasi ma'qul ko'riladi.

Tarjimonlar o'zga milliy adabiyotlarda mavjud bo'lgan eng sara, katta ijtimoiy, adabiy-estetik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblarni o'z tillariga ag'darishga oshiqadilar. «Qayta yaratish bilan bog'liq umumiy adabiy estetik jarayonning uch tomoni: tanishuvdan kelib chiqqan tarjima, tarjimadan kelib chiqqan tanishuv, hamda bularning har ikkalasidan hosil bo'lgan ta'sir bir-biri bilan dialektik tarzda chambarchas bog'liqdir» [56, B. 3-6].

2.2. Bevosita tarjimada badiy uslubning tiklanishi

Badiy tarjima xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni shakllantirish va mustahkamlashda bir xalqning madaniy boyligi, hayoti, turmush tarzi va manaviy yutuqlarini boshqa xalqlarga tanishtirishda muhim o'ringa ega. Tarjima tufayli o'zbek o'quvchilari rus va chet el yozuvchilarining asarlari bilan o'z ona tilida tanishishni davom ettirmoqdalar. Rus mutaxassislarining ulkan tarjima tajribasi o'zbek tarjimachiligi uchun maktab vazifasini bajaradi. Bundan tashqari rus tili jahon adabiyotini o'zbek tiliga tarjima qilishda doimiy vositachi bo'lib keldi. Chet tili mutaxassislarining yetishmasligi, yetarli tarjima tajribasining yo'qligi va shunga o'xshash boshqa omillar vositali tarjimaga bo'lgan talabni kuchaytirdi, bu esa o'z navbatida o'zbek adabiyotida chet el asarlarining ko'payishiga olib keldi. Lekin shu yutuqlar bilan bir qatorda qator kamchiliklarni ham ushbu dissertatsiya ishimizda ko'rsatib o'tishni maqsad qildik.

Tarjima murakkab jarayon hisoblanadi bunda to'liq yaxlitlikka erishish uchun tarjimonga badiiy sezgi, qobiliyat va keng aql idrok yetishmasligi mumkin. Tarjima qilinayotgan asar tili va o'z ona tilini yaxshi bilish bilan bir qatorda tarjimon muallif uslubi, asarda tasvirlangan obrazlar xarakteri, hayoti, urf-odatlar, turmush shart sharoitlari, psixologiya, shu bilan birga tarix, adabiyot diniy va milliy qarashlar asardagi turli holat va jarayonlar haqida chuqur tasavurga ega bo'lishi kerak. Adekvat tarjima uchun nafaqat asar badiy butunlik sifatida aks etishi, balki uning tili va uslubini muallif o'zi tasvirlagandek tassavur qilinishi kerak. Agar tarjimon asar tilini bilmasa va uning taglama tarjimalari yoki bilvosita qilingan tarjimalari nusxalaridan foydalanib tarjima qilsa, asliyat matni va tarjimaning mosligi borasidagi muammolar yanada ko'payadi. Asl nusxani boshqa nusxalar vositasida tarjima qilishda asarning mazmun va shakli o'zgaradi va bu muallifning individual uslubini yo'qolishiga va ko'plab boshqa xatoliklarga olib keladi. Tarjimada asarning o'ziga xosligini tiklash muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun, davrlar xarakterini, muallifning badiy ijodiy uslubini asar qahramonlari nutqini tarjimon imkon boricha to'g'ridan-to'g'ri asl nusxadan tarjima qilishi kerak.

Soʻnngi yillar ichida Oʻzbekistonda tarjima nazaryasi va amaliyoti rivojlandi. Jahon adabiyotining shoh asarlarini oʻzbek tiliga va aksincha oʻzbek adabiyotining shoh asarlarini boshqa tillarga tarjima qilish anʼanasi, koʻplab tilshunoslarni va tarjimonlarni tarjima nazaryasi bilan jiddiy shugʻullanishga chorladi. Oʻzbek tarjimonligi sohasidagi mazkur shart sharoitlar yanada oldinga odimlashga chorlayapti. Bunda chet tili asarlarini oʻzbek tiliga toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima qilish koʻzda tutilmoqda. Badiiy tarjima sanʼati asosi mazmun va shaklning yaxlitligini saqlash asl va nusxa ruhini toʻla yetkazish bilan chambarchas bogʻliqdir. Tarjimon asl nusxaning mazmun va shaklning badiiy estetik butunligini tiklashga erishishi kerak.

“Kontekst” har safar soʻzning mohiyatini aniqlashtirishda uning atrofida boshqa birliklarini mavjud qilishda muhim ahamiyat kasb yetadi. Asl nusxaga boʻlgan eʼtiborsizlik va rus tiliga bogʻlanib qolish soʻzma soʻz tarjimaga olib keladi. Masalan, O.Genrining “Qirtishlangan boʻri” asaridagi “squel-squel to the police” rus tilida “karaul polisiya” undov soʻzi bilan almashtirilib mos tarjimaga erishiladi. Lekin oʻzbek tilida “karaul” soʻzi tarjimon orqali boshqa maʼnoda koʻrsatilishi soʻz asl mohiyatining yoʻqolishiga olib keladi: “If he get the money, you can squeal to the police”. // “Если ему удастся заполучит твои денежки, ты вопиш:караул, полиция // “Basharti u Sening pullaringni olib qoʻyishga muyassar boʻlsa, darrov: - Qorovul! Politsiya, - deb baqirasan!”

Bu misolda rus tilida berilayotgan “караул” soʻzi oʻzbek tarjimoni tomonidan notoʻgʻri talqin qilinishi natijasida, “qorovul, qoʻriqchi” kabi maʼno koʻchishi sodir boʻlmoqda. Aslida rus tilida bu soʻz undov soʻzga aylanib ketgan boʻlib, biror baloga uchragan odam xavf-xatarni sezgan vaqti ushbu iborani boshqa odamlarning eʼtiborini tortib, yordamga chaqirish uchun qoʻllaniladi. Shuning uchun ham, oʻzbek tiliga bu soʻzni “Voy dod! dod!” deb tarjima qilish maqsadga muvofiqroq boʻlardir. Tarjimon har doim kontekst maʼnoning tarjimada aks ettirilishini inobatga olishi kerak.

Yoki shu kabi tushunmovchilikka sabab boʻladigan boshqa bir tarjimani ham misol qilib koʻrsatish mumkin:

And that afternoon Sue came to the bed where Johnsy lay, contentedly knitting a very blue and very useless woolen shoulder scarf. // В тот же вечер Сю подошла к кровати где лежала Джонси, с удовольствием довязывая ярко-синий, совершенно бесполезный шарф. // Jonsi hozir unga mutlaqo kerak bo'lmagan, och-havo rang sharfni zo'r havsala bilan bo'yniga bog'lamoqda edi.

Tarjimadan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, tarjimon asarning asliyat nusxasini ochib ham qarab ko'rmaganining natijasida O.Genrining "So'nggi yaproq" deb nomlangan hikoyasining qahramoni Jonsi, nima uchundir keraksiz bir sharfni bo'yniga **bog'lash** bilan ovora bo'lib qoladi. Aslida esa, Jonsi bu sharfni bog'lash emas, to'qish bilan mashg'ul bo'lgan edi, asliyat matnidan behabar tarjimon yesa, bunga e'tibor bermasdan, rus tilidagi "vyazat" so'zini "to'qimoq" yemas, "bog'lamoq" deya tarjima qilib qo'yadi.

Badiiy tarjima jarayonida shunday holatlar ham bo'ladiki biz yuqorida ko'rib o'tganimiz, mikrokontekstdan har doim ham gapning ma'nosini anglab olib bo'lmaydi. Bu kabi holatlarda, tarjimonlar o'zining fon bilimlariga tayanib ish ko'rishlari kerak bo'ladi. O'zbek tilida odatda hurmatli va yoshi katta kishilar bilan muloqot qilish jarayonida "-siz" suffiksi va "siz" olmoshini so'zlarning oxiriga qo'shish qabul qilingan. Rus tilida bu holat "ты" va "вы" so'zlari yordamida farqlanadi. Ingliz tilida yesa bu ko'rsatgich har qanday holatda ham "you" tarzida beriladi. Shuning uchun ham, qahramon "siz"lab yoki "sen"lab gapirayotganini umumiy katta konteksning vositasida tarjimon aniqlab olishi zarur bo'ladi. Shuning vositasida odob-ahloq qoidalari normalari saqlab qolinadi:

Why, last night, dad, we heard her say, I played it ever so much. Honest –I have been playing it. And it's such a splendid instrument; you don't know how I love it. I didn't like to play loud when you was so sick.

Ну как же, папочка, услышал-ли ты её голос, - вчера вечером я очень много играла. Честное слово я играла. Такой это замечательный инструмент, что ты даже представи не можешь, как он мне не нравится. Мне не хотелось играть громко, пока ты болен.

Nega unday deysan otajon, - dedi qiz, - kecha kechqurun juda ko'p chaldimku. Xudo haqqi, otajon rostdanam chaldim. Nimasini aytasan shunday ajoyib pianino ekanki, asti qo'ya ber, u menga juda, juda yoqib tushdi. Sen betob bo'lganing uchun qattiq chalgim kelmadi.

Muallifning g'oyasi bo'yicha O. Genrining "Pianino" asaridagi qahramon qiz juda ham Mehribon va tarbiyalidir, dadasini didini yerga urmaslik va uning san'atda hech nimani tushunmasligini yashirish, hamda oqibatsiz bo'lib ko'rinmaslik uchun u dadasi olib kelgan bir tovush ham chiqmaydigan buzuk pianinoda o'ynashdan voz kechadi u bu sirni dadasini o'limigacha saqlab faqat uni o'limidan so'nggina ochadi. Mana shunday yaxshi tarbiyalangan qiz nima uchundir o'zbekcha tarjimada otasiga muntazam zarda qiladi, lekin bu o'zbekcha odob axloq qoidalariga to'g'ri kelmaydi. Natijada, qaxramonning nutqi va o'zini tutishi orasida qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Bundan xulosa qilish mumkinki tarjimon muallifni umuman tushunmaydi shunchaki ruschadan tarjima qiladi.

Asl nusxaning milliy o'ziga xosligini tiklash badiiy asarning tarjima qilinish muammolari bilan chambarchas bog'liq. Ma'lumki, badiiy asarlarda ma'lum bir xalqning voqye'lik omillari badiiy obrazli shaklda ifodalaniladi. Obrazlarning o'ziga xos jixatlari va xarakterlari asarda frazeologik birliklar orqali ifodalaniladi. Ular har bitta tilda o'ziga xos ifoda shakliga yega. Frazeologik birliklar xalqning madaniyatdagi o'ziga xosligini til tizimiga mustaxkam o'rnashadi va bu bilan ma'lum bir milliy rux bag'ishlaydi.

Iboralarning milliy koloriti, ular tarkibidagi ma'lum bir birliklar ishtirokida shakllanadi. Ma'lumki turli xil geografik nomlar ham iboralarning tarkibiy qismi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Misol uchun quyidiga iboralar tarkibiga mamlakat, shaxar, qishloq, daryo, saxro nomlari ham kiradi. Bu iboralarning ba'zilari mazmun va madaniyati jixatidan faqat o'zbek xalqi uchun xosdir. Bu kabi birliklarning tarjima tilida berilishida yo'l qo'yilgan xatoliklar odatda butun boshli matnda g'alizliklarni keltirib chiqaradi. Bunday iboralarning qo'llanilishi asl nusxadagi tilining o'ziga xosligiga mos kelmay natijada milliy koloritga zarar yetkazadi. V.Irvingning, "Iblis va Tom Uoker" hikoyasining o'zbekcha tarjimasida

tarjimonning hato tanlovi tufayli kulgili hato yuzaga kelgan, unda bir ibora rus tilidan farqli o'laroq o'zbek tarjimasida yorqin milliy rangdorlikka ega:

I'll drive them to d-!''

Я буду доводит их до самого дьявола!

Onasini uch qo'rg'ondan ko'rsataman

“Onasini uch qo'rg'ondan ko'rsatmoq” iborasi yorqin o'zbek milliy xarakteriga ega. Bu o'rinda uni qo'llash nojoiz. Bunday frazeologik birliklardan foydalanish asl nusxaning milliy rangdorligiga zid. Bunda ingliz odamining o'zbek milliy realiyasini o'z ichiga olgan frazeologizmini qo'llashi, kitobxonda noto'g'ri taassurot uyg'otishi mumkin bo'ladi.

Agar asl nusxa matni so'zlarining tarjima matni tarkibiga kiritish holatlari tarjima amaliyotda xatarli bo'lsa, milliy mohiyatni ifodalovchi bunday til birliklarini tarjima qilish o'ta qaltis chunki bunda tarjima asl nusxa bilan umuman mos kelmasligi mumkin. Bunday holatlar ma'lum bir til soxiblari uchun darrov ko'zga tashlanadi. Buning natijasida ortiqcha tafsilot va mazmunning yo'qolishi yuzaga kelishi ham mumkin. Chunonchi, O.Genrining, “Золото и любовь (Oltin va muhabbat) novellasida, “преприя so'zining mohiyatini o'quvchiga yetkazish uchun o'zbek tarjimoni xalqaro birlik (realiya)ni, “dala” so'zi bilan ommalashtiradi:

“And then Anthony Rockwall <...>shouted, “Mike!” in the same voice that had once chipped off pieces of welkin on the Kansas praries // И тут энтони Рокволл заорал:<<Майк!>>, тем самым голсом, от которого когда-то чут Не лопалос небо над Канзасскими препиями// Antoni Rokvoll bir vaqtlari Kanzas dalalari osmonlarini larzaga keltirgan tovushi bilan <<Mayk!>> deb baqirdi.

Bu orada ma'lumki xar bir milliy tilning lug'at boyligi nafaqat o'zining ichki imkoniyatlari bilan balki boshqa tillarning ta'siri ostida ham boyitiladi. o'zlashtirma so'zlar tilning lug'at boyligida mustaxkam o'ringa ega. Bundan tashqari tarjimon xar bir xalq uchun o'ziga xos ma'no kasb etuvchi o'xshash so'zlarga aloxida e'tibor berishi kerak. Amerikancha “преприя” so'zi o'zbekcha tarjimada “dala” so'zi bilan o'xshash ma'noni bersa ham, ularni almashtirish

mumkin emas. Rus tilida ham, “перия” so’zi, “поле” bilan almashtirilmasligini hisobga olgan holda rus tarjimoni uni shu xolicha qoldirgan.

To’g’ridan-to’g’ri tarjima har doim asl nusxaning mazmun va shakl dialektik birligini tiklash imkonini beradi. Jek Londonning “Hayotga bo’lgan muxabbat” hikoyasini o’zbek tiliga ikki marotaba ya’ni bilvosita boshqasi yesa to’g’ridan to’g’ri tarjima qilingan. 1961-yilda Fattox Abdullayev bu hikoyani rus variantidan, 1972-yilda Abduqaxxor Iminov uni bevosita ingliz tilidan tarjima qiladi. N.Daruzasning ruscha tarjimasida to’rtlikdan iborat bo’lgan epigraf yo’q xuddi shunday Fattox Abdullayevning tarjimasida ham, u mavjud emas. Lekin A.Iminovning tarjimasida epigraf shoirona tiklangan. Zero, aynan shu epigraf asarning butun mazmun mohiyatini ochib muallifning ma’lum bir ma’noda uslubga ishora qiladi. Shuning uchun uni tashlab o’tish maqsadga muvofiq emas.

Asl nusxa:

This out of all remain
They have lived and have tossed:
So much of the game will be gain,
Though the gold of the dice has been lost.

To’g’ridan to’g’ri tarjima:

Taqdir Seni otsa ham xar yon,
Shu narsani unutm inson.
Mol dunyo Deb qayg’urma aslo,
U topilar omon bo’lsa jon.

Nafaqat kommunikativ balki ma’lum bir sitilistik vazifalarni ifodalashda foydalaniladigan til vositalari tarjimada murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Ularni bartaraf etish esa kontekstda mavjud birliklarning mohiyatini tushunish aniq vaziyat til birliklarini moxirona tanlash bilan chambarchas bog’liq.

Yaxshi tarjima qilingan asar har doim o’quvchini quvontirib unga estetik zavq bag’ishlaydi. Rus tili ikki madaniyat o’rtasida yaxshi vositachi vazifasini bajardi va o’zbek adabiyoti zaxirasini boyitdi va boyitishni davom etmoqda. Lekin, masala shundaki bevosita tarjima muammolarini qayta ko’rib chiqish va uni

rivojlantirish uchun jiddiy sabablar bor. Zero bu xaqiqiy asar ruxini birga yetkazishga xizmat qiladi. Faqat shundagina badiiy o'ziga xoslikni milliy ruxiyatni va muallifning individual ruxiy ijodiy uslubini ifodalash mumkin.

2.3. Bilvosita va bevosita tarjimaning badiiy –estetik ahamiyati

Bevosita tarjima. Bu – to'g'ridan-to'g'ri asliy matn bilan ishlash natijasida yuzaga keladigan tarjima. Bevosita tarjima jarayonida mutarjimning asliyat tilini bilguvchi, zullisonayn bo'lishi talab qilinadi. Bu haqda adabiyotda ko'p gapirilgan. N.A.Dobrolyubovning «Eneida» haqidagi maqolasini eslaylik. Unda buyuk tanqidchi tarjima qiluvchi kishi, birinchi navbatda, shoir bo'lishi (1) kerak, degan edi. Uning badiiy didi yuksak bo'lishi (2), ayni asarni yozgan shoirning ichki dunyosini bilmog'i (3), uning ijodini to'liq his qilmog'i (4) kerak. bugina emas, klassik asarlarni tarjima qiluvchi kishi olim ham bo'lishi (5) zarur. U o'sha xalqning qadimiy turmush sharoitlarini (6), o'sha davrlardagi urf-odatlarini (7), xususan, ularning tilini (8) mukammal bilmog'i darkor. Har bir so'zning eng nozik ma'nolarini (9), hatto ko'z ilg'amas bir ko'makchining ma'nosini (10) ham yaxshi bilishi kerak. Xususan, u asarni qaysi tilga tarjima qilayotgan bo'lsa, o'sha tilni juda yaxshi bilishi (11) zarur. U zo'rma-zo'rakilik bilan tarjima qilmaslik (12), o'z tilining butun boyligidan to'la foydalana olish (13), bironta ham sun'iy jumлага, g'aliz iboraga yo'l qo'ymaslik (14), asarda tasvirlangan fikrni mumkin qadar to'laroq aks ettirish uchun o'z tilida to'g'ri va chiroyligina emas, balki yengil va erkin yoza bilmog'i (15) lozim («Eneida» haqidagi maqoladan).

Bevosita, bilvosita yoki vositali tarjimada mutarjim asliyat (A) tilidan ikkinchi (B) tilga o'girilgan matn asosida o'zining (V) tiliga ag'daradi – tarjimadan tarjima yuzaga keladi. Natijada taglamadan B tildagi tarjimaga o'tgan hamda uning o'zida yuz bergan qusurlar V tilga o'tishi oqibatida tarjima sifatsizlanaveradi. Shuning uchun bevosita tarjima eng muhim sifat mezoni hisoblanadi. Jahon adabiyotida bunga misol ko'p.

Siseron (m.a. I asr) Esxin va Demosfen nutqlarini yunon tilidan, Simmax (m.a. II asr) Tavrotni ivrit (ibroniy) tilidan yunon tiliga, Iyeronim (IV asr) uni lotin tiliga, ancha keyin, XV asrda, G. Shteynxfel - Ezop va Bokkachchoni, A. fon Eyb

- Plavtni nemis tiliga, I. dyu Belle - Ovidiyni fransuz tiliga bevosita tarjima qildilar.

«Qirol Lir»ni gruzin tiliga o'g'irish uchun I. Chavchavadze ingliz tilini maxsus o'rgangan. Fransuz, nemis va ingliz tillari ustasi I. Machabeli 1873 yili «Qirol Lir»ni bevosita Shekspir tilidan tarjima qildi.

Yuqori taraqqiyot bosqichida turgan xalqlarning so'z ustalari Shekspir asarlarining vosita tillar orqali tarjima qilinishini o'zlari uchun isnod deb bilganlar. Shu tufayli doimo buyuk adibni bevosita ingliz tilidan tarjima qilish uchun kurashdilar. Hozir ruslar, ukrainlar, gruzinlar, armanlar, Boltiq bo'yiliklar dramaturg asarlarini ingliz tilidan tarjima qiladilar. M. Lozinskiy, B. Pasternak, S. Marshak Shekspir asarlarini to'g'ridan-to'g'ri XVII asr ingliz tilidan, S.N. Ivanov Alisher Navoiy asrlarini XVI asr eski o'zbek tilidan qoyil maqom qilib o'g'irganlar.

Tarjimaga filologik taxlil nuqtai nazaridan yondashish xorijiy tildagi matnni teran anglash va tarjima jarayonida asl nusxa matnidagi so'z va iboralarning tagmazmunini tarjima tilida qayta yoritishda qo'l keluvchi usullardan biri hisoblanadi.

Ushbu muammoni buyuk ingliz adibi Shekspir asarlarining rus va o'zbek tillarga tarjimasi tarixi asnosida ko'rib o'taylik.

Ma'lumki, Shekspir fojealari dastlab rus tiliga XVIII asrda tarjima qilingan. Aniqrog'i 1748 yil shoir A. Sumarokov "Hamlet" fojeasini rus tiliga o'giradi. Bu tarjima rus adabiyotida klassisizm davri adabiyotining maxsuli bo'lib, unda klassisizm uslubining ustivorligi yaqqol sezilib turadi. Birinchidan, shoir A.Sumarokov "Hamlet" tarjima qilishdan ko'ra ko'proq, unga klassisizm aqidalariga binoan taqlid qilgani, qolaversa rus tilida yangi "Hamlet"ni yaratgani ko'rinib turardi. Ikkinchidan, klassisizm qonunlariga mos keluvchi, fojeaviy asarning so'nggida voqea yaxshilik bilan tugashi zarurligi "Hamlet"ning ruscha matniga ham ko'chib o'tgandi. Ya'ni, A.Sumarokovning "Hamlet"ida ham oxirgi saxnada Hamlet va Ofeliyaning orzu-havaslari ro'yobga chiqib, ularning nikohi bilan yakunlanadi. Xullas, A.Sumarokov tarjimasi o'sha davrdagi rus Shekspirshunoslari tomonidan tanqidga uchraydi. Demak, XVII-XVIII asrlarda

Yevropada hukmron bo'lgan klassisizm aqidalari tarjima asarlariga ham o'z hukmini o'tkazgan. Qolaversa, "filologik tanqid va talqindan" uzoq bo'lgan XIX asrga kelib, tarjimada, xususan Shekspir asarlarini rus tiliga o'girishda "taqlidiy tarjima" o'rnini "erkin tarjima" uslubi egallaydi. Bu uslub davrining ilg'or adabiy oqimi bo'lgan romantizm qonuniyatlariga mos edi. Bu uslubning o'sha davrda rus tiliga o'girilgan va rus teatrlarida saxnalashtirilgan "Hamlet" fojeasining M.Karabonov variantiga nisbat berib aytish mumkin. XIX asrning ikkinchi yarmida "Hamlet"ning rus tiliga qilingan tarjimalarida asliyatga erkin yondashishdan chekinish holati kuzatilib, badiiy asar matniga "Shekspir tiliga yetibor berish va tarjimada asliyat tili obrazlilikini saqlab qolishga"ga asosiy etibor qaratilgan yedi. Bu xususiyat Shekspirshunos olimlarning ta'kidlashicha o'sha yillarda amalga oshirilgan Shekspir asarlarining P.Vronchenko K.Kyuxelbeker tarjimalariga mosligini takidlab o'tadilar. Ayni paytda "erkin tarjima" usuli "Hamlet"ning 1889 yilda A.Moskovskiy tarafidan o'girilgan tarjimasida hukmron bo'lib qolgan edi.

XX asrga kelib, Shekspir asarlari rus tiliga yanada mukammal, ta'bir joiz bo'lsa, realistik tarjima (G. Gachechiladze) prinsiplariga amal qilingan holda tarjima qilina boshladi. Bu holatni, tarjima ustalari B.Pasternak, M.Loziinskiy tarjimalariga nisbat berib aytish mumkin.

Malumki, "Hamlet" fojeasida o'quvchi va tomoshabin qalbini jumbushga keltiruvchi holat Hamlet monologi hisoblanadi. Monologning ilk satrlari asliyatda quyidagicha jaranglaydi:

To be, or not to be; hat is the question
Whether tis nobler in themind to suffer...

A.Moskovskiy tarjimasi.

Жизнь или смерть? Достойней ли
Сносить удары роковые...

P.Vronchenko tarjimasi:

Быть или не быть - таков вопрос:
Что лучше, что благородней...

Endi yuqoridagi tarjimalarni “Hamlet”ning o‘zbek tiliga o‘girilgan tarjima variantlari bilan solishtiraylik: 1934 yilgi Cho‘lpon tarjimasida:

Yo hayot, yo o‘lim , masala shunda:

Dilozor taqdirning nayza va o‘qlari...

1948 yilgi M.Shayxzoda tarjimasida:

Tirik qolmoq yo o‘lmoq? Shudir masala.

Qaysi biri bulardan bizga munosib?

1991 yilgi J.Kamol tarjimasida :

Yo hayot, yo mamot, masala shundoq.

Joizlikning ul jobiru jabbor falakning...

«Hamlet»ni o‘zbek tiliga Cho‘lpon va M.Shayxzoda mavjud ruscha tarjimalardan o‘girishgan bo‘lsa, J.Kamol uni bevosita asliyatdan o‘zbekchalashtirgan. Har uchala tarjimada o‘ziga xos yutuqlar mavjud. Sababi uchala tarjimon ham bu sohada tanilgan, She‘riyat bobida ham nuxtabon shoirlardir. Taniqli tarjimonshunos olim, prof. M.Xolbekovning takidlashicha uchala tarjima ham o‘z davrining maxsuli, qolaversa taniqli uch so‘z ustasining o‘zbek tilida yaratgan “Hamlet”idir.

Xo‘sh, yuqoridagi tarjimalar filologik tahlil (analiz) va talqin (interpretasiya) talablariga javob bera oladimi? Bizningcha yo‘q. Sababi, ulardagi yuksak badiiylik taxsinga sazovor bo‘lgani holda, lingvistik talqinning zaifligi sezilib turadi. Monologning boshida jaranglayotgan birgina “To be, or not to be” iborasining asliyatdagi jarangi, tag mazmundagi manosi ruscha va o‘zbekcha tarjimalarda o‘z aksini topmagan. Buni taniqli matnshunos va tarjimashunos olimlar ham takidlab o‘tadilar. Kelgusi tadqiqotlarimizda masalaning shu jihatiga chuqurroq to‘xtalib o‘tamiz.

II bob bo‘yicha xulosa

Xo‘sh, yuqoridagi tarjimalar filologik tahlil (analiz) va talqin (interpretatsiya) talablariga javob bera oladimi? Bizningcha yo‘q. Sababi, ulardagi yuksak badiiylik tahsinga sazovor bo‘lgani holda, lingvistik talqinning zaifligi sezilib turadi. Monologning boshida jaranglayotgan birgina “To be, or not to be” iborasining

asliyatdagi jarangi, tag mazmundagi ma'nosi ruscha va o'zbekcha tarjimalarda o'z aksini topmagan. Buni taniqli matnshunos va tarjimashunos olimlar ham takidlab o'tadilar. Kelgusi tadqiqotlarimizda masalaning shu jihatiga chuqurroq to'xtalib o'tamiz.

Yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki tarjima xalqlar o'rtasida bevosita ma'naviy aloqa qilish quroli. Tarjima madaniy va ma'naviy boyliklar, kishilarning ko'p asrlik orzulari, g'oyasi va qarashlari mujassamlangan asarlarni o'zga til sohibi bo'lmish xalqqa yetkazish bilan bir qatorda, xalqning ko'ngil daftarini namoyish etadi.

Jahondagi barcha tillarda yaratilgan badiiy adabiyot asarlari katta tarjima yo'lida ayribosh qilinadi. Tarjimasiz, faqat o'z ichki resurslari hisobigagina rivojlanadigan, uzoq va yaqin boshqa xalqlar bunyod etgan madaniy boyliklardan bahramand bo'lmagan «sof» milliy «tiniq» madaniyat, adabiy o'zgarmas «toza til» yo'q, bo'lishi ham mumkin emas.

Agar tarjima bo'lmaganida milliy madaniyatlar va insoniyatning buyuk daholari bunyod qilgan o'lmas fan va san'at obidalari yakkalanib qolgan bo'lar edi.

Tarjima murakkab jarayon hisoblanadi bunda to'liq yaxlitlikka erishish uchun tarjimonga badiiy sezgi, qobiliyat va keng aql idrok yetishmasligi mumkin. Tarjima qilinayotgan asar tili va o'z ona tilini yaxshi bilish bilan bir qatorda tarjimon muallif uslubi, asarda tasvirlangan obrazlar xarakteri, hayoti, urf-odatlar, turmush shart sharoitlari, psixologiya, shu bilan birga tarix, adabiyot diniy va milliy qarashlar asardagi turli holat va jarayonlar haqida chuqur tasavurga ega bo'lishi kerak. Adekvat tarjima uchun nafaqat asar badiiy butunlik sifatida aks etishi, balki uning tili va uslubini muallif o'zi tasvirlagandek tassavur qilinishi kerak. Agar tarjimon asar tilini bilmasa va uning taglama tarjimalari yoki bilvosita qilingan tarjimalari nusxalaridan foydalanib tarjima qilsa, asliyat matni va tarjimaning mosligi borasidagi muammolar yanada ko'payadi. Asl nusxani boshqa nusxalar vositasida tarjima qilishda asarning mazmun va shakli o'zgaradi va bu muallifning individual uslubini yo'qolishiga va ko'plab boshqa xatoliklarga olib keladi. Tarjimada asarning o'ziga xosligini tiklash muvaffaqiyatli amalga oshishi

uchun, davrlar xarakterini, muallifning badiy ijodiy uslubini asar qahramonlari nutqini tarjimon imkon boricha to'g'ridan-to'g'ri asl nusxadan tarjima qilishi kerak.

So'nggi yilllar ichida O'zbekistonda tarjima nazaryasi va amaliyoti rivojlandi. Jahon adabiyotining shoh asarlarini o'zbek tiliga va aksincha o'zbek adabiyotining shoh asarlarini boshqa tillarga tarjima qilish an'anasi, ko'plab tilshunoslarni va tarjimonlarni tarjima nazaryasi bilan jiddiy shug'ullanishga chorladi. O'zbek tarjimonligi sohasidagi mazkur shart sharoitlar yanada oldinga odimlashga chorlayapti. Bunda chet tili asarlarini o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish ko'zda tutilmoqda. Badiiy tarjima san'ati asosi mazmun va shaklning yaxlitligini saqlash asl va nusxa ruhini to'la yetkazish bilan chambarchas bog'liqdir. Tarjimon asl nusxaning mazmun va shaklning badiy estetik butunligini tiklashga erishishi kerak.

III BOB. SHEKSPIR –UYG`ONISH DAVRINING DAHO TRAGEDIYANAVISI VA HAMLET TRGEDIYASINING G'OYAVIY YO'NALISHI VA MAZMUNI XUSUSIDA

3.1 Vilyam Shekspirning hayoti va ijodiy faoliyati

XV-XVI asrlarda Evropa mamlakatlarida o`rta asr feodalizmidan kapitalizmga o`tish davri bo`ldi. Bu davr Uyg'onish yoki Renesans nomini oldi. Shaharlarning rivojlanishi, manfakturalarning paydo bo`lishi, keng savdo munosabatlarini o`rnatilishi natijasida o`rta asr feodal tartiblari inqirozga uchradi.

Bu davr buyuk geografik kashfiyotlarning ochilishi davri bo`lib tarixga kirdi (Amerikaning ochilishi, Xindistonga savdo yo`lining ochilishi). Bu davrda yangi milliy davlatlar paydo bo`ldi. Ilm-fan, san`at, madaniyat, adabiyot beqiyos darajada rivojlandi. Aql-idrokka, o`z kuchiga, yaxshilikka ishonch Uyg'onish davri odamlariga xos fazilatdir.

Angliyaning o`sha davr falsafiy qarashlari Frensis Bekon ta`limotida o`z aksini topdi (F.Bekon ingliz materializmning otasi 1561-1625).

Angliyada Uyg'onish davri Italiya, Frantsiya, Ispaniyadan kechroq boshlandi. XV-XVI asrlarda Angliyada qirol hokimiyati dvoryanlar qarshiligini sindirdi. Hokimyatga intilgan juda ko`p feodal baronlar o`zaro urushlarda halok bo`ldilar.

Tyudorlar sulolasidan bo`lgan Genrix VII va Genrix VIII lar davrida mutloq xokimyat kuchaydi. Genrix VIII ning islohatlari natijasida ko`plab monastirlar yo`qotildi. Mamalakat Rim papasiga tobelikdan qutuldi va qirolning o`zi ingliz cherkovini boshqara boshladi. Uil'yam Tindal «Injil» ingliz tiliga tarjima qildi. Mamalakatni qirolicha Elizaveta (1558-1603) boshqargan yillarda Angliya iqtisodiyati tez sur`atlar bilan rivojlandi. 1588 yili ispanlarning Buyuk armadasi tor-mor qilgan Angliya uchun dengiz yo`llarining barcha osonlik bilan ochila boshladi. Ko`plab dehqonlar o`z erlaridan mahrum bo`ldilar. (Jun sotish bu paytda katta foyda keltirar edi).

Angliyada Uyg'onish harakati Evropaning boshqa mamlakatlariga nisbatan bir muncha keyin, ya`ni XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida paydo bo`ldi. Bu davr Angliya gumanistlari o`z g'oyalarini targ'ib qilishda eng avvalo san`at va

adabiyotdan foydalandilar. Angliya Renessans adabiyotining tadrijiy taraqqiyot bosqichlari quyidagicha belgilanadi: 1-bosqich – XV asrning oxiri va XVI asrning 60-70 yillari. 2-bosqich – XVI asrning oxiri XVII asrning boshlari. 3-bosqich – XVII asrning boshlari (aniqrog'i 1616 yildan) shu asrning 40-yillarigacha. Bu bosqichlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Birinchi bosqichda gumanistlar antik dunyo madaniyatini qiziqib o'rganadilar, uning hayotbaxsh taraqqiyparvar g'oyalarini targ'ib qiladilar, shuningdek, o'rta asrlar moralitesidan foydalanib tragediya va komediya janrini yaratadilar. Ikkinchi bosqichda Angliya gumanistik adabiyoti gullab yashnaydi, uning ulug' namoyandalari etishadi va ular davrning muhim ijtimoiy muammolarini ko'taradilar. Uchinchi bosqich teatrlarning yopilishi va Renessans g'oyalarining tanazzuli bilan tavsiflanadi. Angliya Uyg'onish adabiyoti uchun eng xarakterli bo'lgan adabiy tur, bu – dramatik turdir. Biroq XV-XVII asrlarda epik turda ham bir qator salmoqdor asarlar yaratildiki, bular, eng avvalo, Tomas Mor (1478 – 1535)ning “Utopiya”(1516), Frensis Bekon (1561 – 1626)ning “Yangi Organon” (1620) romanlaridir. Ularda mualliflarning shu davr Angliya jamiyatiga tanqidiy munosabatlarigina aks etib qolmay, balki ularning ijtimoiy ideallari ham ifodalanadi.

Uyg'onish davrining teatri XVI asrning 2-yarmidan boshlab rivojlandi. Bu davrda ingliz gumanist dramaturglari xalq teatri va antik teatr elementlarini sintezlashtirgan Angliya milliy dramaturgiyasini yaratdilar. XVI asrning 60-70 yillariga qadar Angliyada teatr tomoshalari sayyor bo'lib, 1576-ilda dastlabki doimiy teatr binosi barpo etiladi. XVI asrning oxiriga borib birgina Londonning o'zida bunday teatrlar soni 9 taga etadi. Bu o'sha davr sharoitida teatrning ijimoiy roli naqadar yuqori bo'lganligini ko'rsatadi.

V.Shekspir 1564 yil 23-aprelda Stratforda mayda savdogor-hunarmand oilasida dunyoga kelgan. U 1585 yildan Londonda yashay boshlagan. 1590 yildan London teatri (“Globus”) da aktyorlik qiladi va shu davrdan pesalar yoza boshlaydi. Shekspir ijodi asosan uch katta davrga bo'linadi.

Shekspir ijodining birinchi davrida (1591-1601) yozgan “Adashishlar komediyasi” (1592), “Veronalik ikki yigit” (1594), “Yoz kechasidagi tush” (1595), “Yo’q narsadan chiqqan g’avg’o” (1598), “O’n ikkinchi kecha” (1600) va boshqa pesalarida uyg’onish davri kishisining o’ziga xos tiynatini yaratdi. Tarixiy xronikalar deb atalgan “Genrix VI” (1590-1592), “Richard III” (1592), “Richard II” (1595), “Genrix IV” (1599) va boshqalar. Nomlari keltirilgan asarlarida V.Shekspir feodal anarxiyasiga qarshi markazlashgan hokimiyat uchun kurash, davlat va xalq taqdiri bilan bog’liq masalalarni targ’ib etgan edi. Hayotning fojeali tomonlari, ayniqsa, “Romeo va Julietta” tragediyasida chuqur aks ettirilgan. Unda bir-biriga dushman bo’lgan ikki feodal oilada tug’ilib voyaga yetgan va bir-birlarini sevib qolgan ikki yoshning fojeali taqdiri ularning erkin sevgisiga to’g’anoq bo’lgan feodal tuzum millati aks etgan. “Yuliy Sezar” (1599) tragediyasida Shekspir qadimgi Rimda muhim siyosiy voqealar, respublikachilar (Brut Kassiy) bilan monarxiya (Yakka hukmronlik) tarafdorlari – sezarchilar (Antoni, Oktaviy) o’rtasidagi kurashni va bu kurashda respublikachilarning fojeali mag’lubiyatini ko’rsatgan.

Shekspir ijodining ikkinchi davri (1601-1608) dramatik faoliyatining yana ham rivojlanishi bilan xarakterlanadi. U tug’ilib kelayotgan kapitalistik tartiblar ham inson istak –orzulariga zi ekanini ilg’ab, burjua munosabatlarini qattiq qoralaydigan, chuqur gumanistik (insonparvarlik) g’oyalar bilan sug’orilgan tragediyalar yaratdi. “Hamlet, Daniya shahzodasi “ (1601) da qahramonning qirol Klavdiydan o’ldirilgan otasi uchun qasos olishi uning buzilgan feodal saroyidan, zulm va istibdoddan intiqom (o’ch) olishi darajasiga o’sib chiqqan ijtimoiy ziddiyatga aylangan edi. Hamlet chirigan feodal olami kirdikorlarini fosh etibgina qolmay, balki izdan chiqib ketgan va buzilgan asrni “izga tushirish” ni o’z zimmasidagi burch deb biladi. Hamlet uyg’onish ruhi bilan yangi tipdagi kishi – adolat uchun kurashuvchi insonparvar kishi timsolidir, chunki uning ko’ziga “ Daniya – zindon” bo’lib ko’ringan edi. “Otello” (1604) tragediyasida Shekspir ikki tarixiy davr – o’sib borayotgan absolyutizm (yakka hokimiyatchilik, mutlaq hokimiyat) va tug’ilib kelayotgan burjua (hukmronlik qilayotgan boy badavlat sinf)

tuzumi sharoitida vujudga kelayotgan yangi axloq va tushunchalarning murakkab jarayoni (oqimi) va o'sha muhit o'rtasidagi ziddiyatlarni aks ettirgan. Qahramonning shaxsiy fojeasi zamonning ijtimoiy-axloqiy konflikti darajasiga ko'tarib ifodalangan. Asarda rashk fojeasi aldangan ishonch g'oyasi bilan birikib ketadi. "Qirol Lir" (1605) tragediyasida Shekspir zeb-ziynat va aysh-ishrat ichida dabdabali hayot kechirayotgan bir to'da hukmronlar bilan son-sanoqsiz azob-uqubatlarini ko'rsatadi. Lir murakkab shaxs. Uning kuchli va ojiz tomonlari bor. Hukmronligi davrida u zaif edi, chunki haqni nohaqdan ajrata olmasdi. Gadoy holiga tushib qolgan Lir turmushning achchiq-chuchugini o'z boshidan kechirib, haq va nohaqlikni farqlaydigan ma'naviy kuch kasb etadi, ezilgan xalq ahvoliga achinadi. Asarda feodal jamiyati odamlar orasidagi tabiiy, yaqin aloqalarning buzilish jarayoni katta iste'dod bilan ko'rsatilgan. "Makbet" (1606) tragediyasiga Shekspir siyosiy despotizm (istibdod) ning to'la in'ikosi bo'lgan zolimlar (Makbet va Ledi Makbet) yer yuzida yashamasligi degan teran gumanistik (insonparvarlikka xos) fikrni olg'a suradi va ularga omma manfaatlarini himoya qiluvchi qahramonlar (Malkolm, Makduf) ni qarshi qo'yadi. "Antoniya va Kleopatra" (1607), "Korchalon" (1607), "Afinalik Timon" (1608), "Rim tragediyalari" turkumiga oid asarlarida ham Shekspir chuqur gumanistik g'oyalarni ilgari surdi, feodalizm (dehqonlarni ekspluatatsiya qilishga asoslangan ijtimoiy tuzum) o'rniga kelayotgan kapital (sarmoya, boylik) hukmronligining kirdikorlarini fosh etdi.

Shekspir ijodining uchinchi davri (1600-1613) Yakov I ning feodal reaksiya (ijtimoiy taraqqiyotga qattiq qarshilik ko'rsatish va inqilobiy harakatni bostirish siyosati) si kuchaygan uyg'onish davri gumanistik g'oyalarni amalga oshirish haqidagi xayolot zarbaga uchragan hayotga to'g'ri keladi. Teatr faoliyati qirollik nazorati ostiga olinadi. Endi Shekspir kishini hayajonga soluvchi katta ijtimoiy – siyosiy voqealar aks ettiriladigan tragediyalar emas, balki tomoshabinga yengil ta'sir etadigan tragik – komik xarakterdagi pesalar yarata boshlaydi. Lekin shunday paytda ham Shekspir o'zining gumanistik g'oyalariga sodiq bo'lib qoladi. Garchi asarlarining nihoyasi ezgulik bilan tugasa ham mavjud tuzum bilan muros

qilmaydi, aksincha, u teskaricha kuchlarning fe'l – atvoriniqoralovchi pesalar yozishni davom ettiradi. Shekspir tragik komediya janrini yuzaki qabul qilgan bo'lsa ham, unga chuqur insonparvarlik g'oyalarini kiritdi. Uning bu turdagi asarlarida real voqelik hayotiy ertaklar bilan qo'shilib ketadi va ularda kishining yaxshi fazilatlari yomon ehtirosalar ustidan g'olib keladi.

Shekspir realistik metodining o'ziga xos xususiyati muallifning voqelikni chuqur o'rganib murakkab" voqealar oqimi " ning asosiy ma'nosini anglab, inson kuchi va uning cheksiz imkoniyatlariga to'la ishonch bilan qaraganligidadir. Bu hol Shekspir gumanizmining hayotbaxsh ruhini belgilaydi. Shekspir realizmining kuchi feodal tuzumi halokatini, shuningdek, paydo bo'layotgan burjua jamiyatining odamlar uchun fojeaviyligini sezish, bu jamiyatning razolat va qaboxatlarini hayotiy timsollar bilan haqqoniy gavdalantirishidadir. Daho olimlar, shoirlar, yozuvchilar Shekspirning realism va xarakter yaratishdagi san'atkorligini alohida ta'kidlaganlar. Shekspirning realistic san'at haqidagi o'z qarashlari Hamletning aktyorlar bilan bo'lgan suhbatida aniq ravshan ifodalangan. Bunda u ortiqcha shovqin – suron ko'tarmaslik, sun'iylikka berilmaslik, "so'zga yarasha harakat" qilish, "harakatga yarasha" gapirish va bular " tabiiylik chegarasidan chiqmasligi shart" ekani haqida fikr yuritgan.

Shekspir tragediyalarini yuqori bosqicha ko'targan omillar – asarlar mavzusining boyligi, g'oyaviy yo'nalishining aniqligi hayotning realistik tasvirlanishidir. Shu boisdan uning dramatic ijodi dunyo teatrlari repertuarlaridan mustahkam o'rin egallab, hozirgacha kishilarni hayajonlantirib kelmoqda.

G'arbiy Yevropada Shekspir ijodini o'rganish 18 asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Germaniyada Gyote va Lessing, Fransiyada Volter va boshqalar Shekspir faoliyati haqida turli xil fikrlar aytgan. Rossiyada ham Shekspir asarlariga qiziqish 18 asrning oxirlarida boshlangan. N.M Karamzin uning "Yuliy Sezar" tragediyasini tarjima qilgan. A.S.Pushkin Shekspir dramatik ijodiga yuqori baho bergan. V.D.Belinskiy Shekspirning realistik metodini batafsil tahlil qilib, yuksak baholagan. M.Gorkiy Shekspirni "eng ulug' dramaturg" deb atagan edi. Hamza nomidagi teatrdagi "Hamlet" tragediyasining sahnalashtirilishi (1935) o'zbek teatr

san'ati tarixida katta voqea bo'ldi. Shekspirning “ Otello” (1941), “Romeo va Julietta” (1951), “Yuliy Sezar” (1964) tragediyalari, “Veronalik ikki yigit” (1966) komediyasi ham o'zbek teatrida katta mahorat bilan namoyish qilindi. Uning Hamlet, Otello, Brut, Dezdemon, Yago va boshqa qaxramonlarini teatrdan qayrayatish va talqin qilishda A.Hidoyatov, O.Xo'jayev, S.Eshonto'rayeva, Sh.Burhonov, N.Raximov va boshqalarning aktyorlik maxorati yorqin namoyon bo'ldi. Shekspirning o'zbek tilida nashr qilingan “Otello”, “Qirol Lir” (G'.G'ulom), “Hamlet”, “Romeo va Julietta” (M. Shayxzoda), “Yuliy Sezar” (Uyg'un), “Qiyiq qizning quyilishi” (T.To'la) va boshqa asarlarini o'zbek kitobxonlari ham sevib o'qimoqdalar. Ayni kunlarda o'zbek kitobxoni Shekspir tragediyalari va dramalarini, ularni aslyatdan o'g'irgan O'zbekiston xalq shoiri J.Kamol tarjimasida o'qimoqda.

2007-2008 yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “ FAN” nashriyotida nashr etilgan “saylanma” dan 12 ta fojea va dramalar o'rin olgan. “Saylanma” uch jilddan iborat bo'lib, birinchi jildda “Qirol Lir”, “Hamlet (Daniya shahzodasi)”, “Makbet” va “Afinalik Timon”, ikkinchi jildda “Romeo va Julietta”, “Otello”, “Korchalon” va “Yuliy Sezar”, uchinchi jildda “Venetsiya savdogari” , “Qish ertagi”, “Qirol Genrix IV” va hamda “Antoni va Kleopatra” kabi tragediya va dramalari jamlangan. Mazkur asarlar tarjimalari ko'p yillik mehnat va maxorat mahsuli hisoblanadi. Nomlari zikr etilgan asarlarning har biri muayyan tadqiqotga munosib obyekt sifatida xizmat qiladi, gap ularni sinchiklab, o'qib, mag'zini chaqishda.

Buyuk ingliz dramaturgi va shoiri V.Shekspirdan o'n bitta tragediya, o'n yettita komediya, o'nta xronika (biror voqea tarixi yoritilgan asar), beshta poema (doston) hamda bir yuz ellik to'rtta sonetdan iborat juda boy, bundan ham muhimi, jahon adabiyotining shoh asarlari hisoblangan ijod namunalari qolgan. V.Shekspirning bobosi fermer bo'lgan. Otasi Jon Shekspir Uorxshir grafligi, Eyvon daryosi sohilidagi Stratford shaxriga ko'chib kelgan. Jon Shekspir juda mehnatsevar va tadbirkor bo'lib, qo'lqop ishlab chiqaruvchi o'z korxonasiga, ikki uyga ega bo'lgan. 1568 yilda u hatto beylif (shahar hokimi) vazifaligiga saylangan,

Stratfordning boy va eng hurmatga sazovor fuqorolaridan biri bo'lgan. U 1557 yilda shu shahar yaqinida yashovchi kichik dvoryannig qizi Meri Arden bilan turmush qurgan. Jonning otasi Shekspirning bobosi Angliyaning eng qadimiy sulolalaridan hisoblangan Ardenlar yerini ijaraga olganligi sababli bu oila bilan yaqindan tanish bo'lgan.

Jon va Merining uchinchi farzandi (ularning to'ng'ich ikki qizi yoshligidayoq vafot etgan) Vilyam 1564 yil tu'g'ilgan. Bunga Stratfordning Troitsa cherkovi daftarida: "Jon Shekspirning o'g'li Villiam 1564 yilning 21 aprelida cho'qintirildi", deb qayd qilinganligi asos bo'lgan. O'sha davrdagi taomilga ko'ra xristian diniga mansub oila farzandi tug'ilganidan keyin uch kun o'tgach cherkovga olib borilgan, yani Vilyam Shekspir 23 aprelda tug'ilgan deb hisoblanadi.

Stratford Angliya markazida Londonga olib boradigan yo'lda, daryo sohilida joylashgan, dala va o'rmonzor bilan o'ralgan bo'lsa ham, o'z zamonasida mamlakatning yirik madaniy va siyosiy markazi hisoblangan. Uning yaqinida Qizil gul va Oq gul urushlarida nom chiqargan V.Shekspirning bir qancha xronikalarida, shuningdek, V.Skottning "Kenilvort" romanida tasvirlangan, qirolicha Elizavetta graf Leysterga taqdim etilgan graf Uorikning Kenilvort qasri qad ko'tarib turgan. 1575 yilda qirolicha Elizavettaning Kenilvortga tashrifi munosabati bilan bu yerda o'tkazilgan tantanalarda yosh Vilyam ham ishtirok etgan.

Shaharda har yili turli xil tomoshalar o'tkazib turilgan. Faqat 1576-1587 yillar yani, 9 yil davomida bu shaharga teatrlarning sayyoh truppalari kamida 24 marta kelganligi ma'lum. O'sha davrdagi odatga ko'ra, truppa artistlari beylif tomonidan qabul qilinar, san'atkorlar tomoshasi shahar hokimiga ma'lum tushsa, truppa birinchi spektaklini uning uyida oilasi va do'stlariga namoyish qilar edi. Demak, Vilyam yoshligidayoq o'z uyida sahna tomonlarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'lgan Stratfordda Angliyadagi eng nufuzli ta'lim muassasalaridan hisoblangan grammatika maktabi (grammar school) bo'lgan. Bu maktabda shahar rahbarlarining farzandlari bepul o'qigan. Grammatika maktabida universitet ma'lumotiga ega bo'lgan o'qituvchilar dars bergan. O'quvchilar asosan lotin,

qisman yunon tilini o'rganganlar. Villiam yeti yoshidan o'n uch yoshiga qadar Grammatika maktabiga o'qishga kirib lotin tilidan saboq olgan, yunon tili bilan tanishgan, antik adabiyotlarni mutolaa qilgan. Xususan, uning Ovidi va Plavt kabi shoirlar ijodi bilan tanishgani ma'lum. V.Shekspir 13 yoshida otasi noma'lum sabablarga ko'ra xotini Meri Ardenga tegishli yerlarni garovga qo'yishga, keyin esa ularni sotishga majbur bo'lgan. 1586 yilda u shahar ma'murlari safidan ham chiqarilgan. 1582 yilda Shekspir o'zidan 8 yosh katta bo'lgan mahalliy pomeschchik (katta yer egasi) ning qizi Anna Hatauey (Anna Hatawey) ga uylangan. 1583 yilda bu oilada Syuzanna, 1585 yilda egizak o'g'il – Hemnet (u yoshligida 1596 yilda vafot etgan) va qiz – Judit tug'ilgan.

Taxminan 1585-1586 yillarda V.Shekspir Londonga ko'chib kelgan. U dastavval bu yerda qaysi teatrda, qanday lavozimda bo'lgani noma'lum. Avvaliga u aktyor yoki rejissyor yordamchisi bo'lgan deb hisoblanadi. Faqat 1592 yildagina uning Londondagi Richard Byorbejning "Lordning kamerger xizmatkorlari" artistlar truppasi a'zosi bo'lganligi ma'lum. Umuman, adibning Londondagi 1592 yilgacha faoliyatini tadqiqotchilar "hayf ketgan yillar" deb ham atashadi. Chunki uning ana shu davrdagi hayoti bilan bog'liq birorta xujjat saqlanib qolgan.

1599 yilda V.Shekspir mazkur truppaning paychilaridan biri bo'lgan. Natijada u aktyorlik maoshi, yozgan pesalari uchun qalam haqidan tashqari truppa daromadidan ham o'z ulushini olgan. V.Shekspirning dromadi ko'payishi bilan o'z oilasi bilan birga ota – onasi ukalarini ham mablag' bilan ta'minlab turgan. 1597 yilda esa Stratforddagi eng katta uylardan birini sotib olgan, otasiga dvoryanlik unvonini ham olib bergan.

Angliyada Yakov I hukmronligi davrida bu truppa qirollik teatri maqomiga ega bo'lgan. V.Shekspir uning ko'p yillik a'zolari qatori kamerdiner (shaxsiy uy xizmatkori) unvoniga sazovor bo'lgan. 1612 yilda u noma'lum sabablarga ko'ra iste'foga chiqqan, rafiqasi va qizlari yashayotgan Stratfordga qaytib kelgan. V.Shekspir 1616 yil 23 aprelda vafot etgan.

V.Shekspir hayotiga doir ma'lumotlar juda kam saqlanganligi sababli 18 asr oxirida uning dramalariga muxarrirlik qilgan Jorj Stivens shunday deb yozgan:

“Bizning Shekspir haqidagi bor – yo’q bilganlarimiz: u Stratfordda tug’ilgan, uylangan, farzand ko’rgan. Londonga borgan markazda aktyorlikni egallagan. Pesalar va sherlar yozgan. Stratfordga qaytgan. Vasiyatnoma qoldirgan va o’lgan”. Shekspir ijodining ikkinchi davri sakkiz-to’qqiz yilni o’z ichiga oladi, ya’ni “Hamlet”dan “Afinalik Timon “gacha bo’lgan davr bo’lib , shu orada Shekspir yettita tragediya va to’qqizta komediya yaratgan edi. Lekin dramaturg ijodidagi tadrijiy taraqqiyot birga yuz bergan emas, mazkur asarlar janr , ruh, mazmun jihatdan bir xil emas.Binobarin, bu davrni uch bosqichga bo’lish mumkin: “Yuliy Sezar “, “Hamlet” va birinchi davr ruhidagi komediyalar bilan bir qatorda ularning janri va hal qilinishi zarur bo’lgan muammolariga qarab bir-biridan farq qilish mumkin, ular so’nggi davrlarda drama deb ataladigan janrga yaqin turadigan “Troiy va Kresida “, yaxshilik bilan tugagan ish yaxshi, “Uchga uch”, pyesalari, ikkinchisi- “Otello” , “Qirol Lir”, “Afinalik Timon “ va “Makbet”, uchinchisi – “Antoniy va Kleopatra” , “Korioman” tragediyalari yaratilgan edi.

Kulgi komediyalar va milliy tarixga bag’ishlangan xronik janrlatida aytgan Shekspirni XVII asr boshlarida kelgan tragediya janriga qo’l urishga nima majbur etdi degan savol tug’iladi.

Gap shundaki, ko’pchilik Yevropa mamlakatlarida Uyg’onish davri birmuncha erta yuz bergan edi, uning (Uyg’onish davrining) mafkurasi bo’lgan gumanizmning krizisi (bo’hroni, haraktersizligi , taraqqiyotdan orqada qolganligi Angliyada aynan XVI va XVII asrlar chegarasida, ayniqsa , asr boshlarida juda keskinlashadi. O’sha krizis natijasida boshqa mamlakatlarda Italiya , Germaniya , Ispaniya , qisman Fransiyada) feodal va katolik dini reaksiyasi ustunlikka ega edi, lekin kapitalistik munosabatlar birmuncha rivojlangan Angliyada burjua revolyutsiyasiga tayyorgarlik boshlanadi.

XVI asrning so’nggi yillarida ingliz absolyutizmi (cheklanmagan yakka hokimlik) mamlakat taraqqiyotiga to’sqinlik qiladigan tuzumga aylana boshladi, inqiroz (tushkunlikka) ga yuz o’girdi.Mamlakatda ayni zamonda , burjua munosabatlariga xos bo’lgan ziddiyatlar, qishloqda dehqonlar va mayda aslzodalarning yerlaridan mahrum bo’lishi, shaharlarda mayda kosiblarning

xonavayron bo'lishi mazkur tuzumdan norozilik tug'diradi. Ayniqsa butun og'irligi xalq boshiga tushgan urushlarning beto'xtov davom etishi, keksaygan qirolichaning kun sayin oshib bora yotgan zulmi norozilikni yanada kuchaytirgan edi.

Burjuaziya o'zining noroziligi va monarxiyaga qarshi kurashini din va puritanizm (axloq- odob, sipolik) uchun kurash niqobi ostida olib boradi. Hatto ingliz burjua revolyutsiyasi ham yuzaki qaraganda diniy mazhablarning kurashi sifatida o'tgan edi. Ingliz tarixining o'sha davriga xos bo'lgan o'zgarishlar ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy ziddiyatlar davr mafkurasiga hech so'zsiz ta'sir ko'rsatgan edi, gumanistlar ijodida o'z aksini topdi. Gumanistlarning yuksak orzusi ko'pni ko'rgan va bilgan, hunari baland, qo'lidan ish keladigan, turli sarguzashlarni boshidan kechirgan iste'dodli, har tomonlama taraqqiy etgan insondan iborat edi. Lekin inson shaxsining feodal kishanlarida ozod etilishi gumanistlar nazarda tutgan baxtli hayotga erishish imkonini bermadi. Gumanistlar (xalqparvar kishilar)ning orzulari ushalib, tabiat, jamiyat, inson imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanib, go'zal hayot qurish o'rniga ortib borayotgan yirtqichlik hukmronligi o'rnatilganini, adolatsizlikning bir turi feodalizm o'rniga ikkinchisi – kapitalizmning kelib chiqqanini zamonaning dono vakillari anglab yetgan edi. Afinalik Timonning “Jahonda hamma o'g'ri!” deya xitob qilishi bejiz emasdi. Shunisi haqiqatga yaqinki, Shekspir ham, zanondoshlari ham “feodalizm” va “kapitalizm” tushunchalarini bilmagan, lekin nimalar va kimlar jamiyat, xalq va shaxsga baxtsizlik keltirishini yaxshi bilganlar zamonadan noroziligi, Shekspir tragizm va Hamlet g'amginligining asosiy ijtimoiy sabablari xuddi ana shu gumanistlar ideali yuksak orzusi bilan zamona o'rtasidagi ziddiyatda edi.

Shekspir o'z xronika va tragediyalarida faqat subyektiv fojiali kechinmalarini tasvirlabgina qolmay, davlat va jahon miqyosidagi obyektiv fojia vaziyatlarini ham tasvirlaydi. Shekspir tragediyalarida faqat yakka shaxslarninggina fojiasi berilmaydi, ularning mazmuni umuman hayot fojiasidir. Hamlet, Otello, Lir, Makbet, Brut, Koriolan, Antoniy, Timon kabi tragik (fojiali)

qahramonlar turli davr, xalq, tabaqa vakillari, ularning fojiasi o`sha davr insoniyati fojiasidir.

Shekspir o`z tragediyalarida “Nega inson baxtsiz, uning baxtiga nimalar tushkunlik qiladi?” degan savollarni qo`yadi. Mazkur savollarga javob topish uchun san`atkor hayotni har tomonlama tahlil etadi. Shekspir tragediyalari shaxslar o`rtasidagi do`stlik va muhabbat, jamiyat, davlat, xalqaro munosabatlar va umuman hayotning turfa tomonlarini qamrab oladi. Dramaturgdagi hayotiy tajriba boyligi kishini hayratga soladi, uning asarlarini o`qirkansan, ko`z oldinga Uyg`onish davri Angliyasi gavdalanadi. Shekspir asarlarini o`qirkanmiz, o`z asarlarida turli sohalardan xabardor ekanligini bilib olamiz. Shuning uchun ham uni yurist, geograf, faylasuf, tabiatshunos olim deydilar. u ko`p qirrali ijodkordir.

Lekin shuni alohida ta`kidlash kerakki, Shekspir tragediyalarining mohiyati davr manzarasini tasvirlashdagina emas, balki inson ruhining eng murakkab qirralarini va hayot fojiasiga qanday ta`sir qilganligini ham ifodalaydi.

Shekspir asarlarida inson tashqi omillar ta`siri ostida ezilgan qoloq shaxs emas. Shekspir dramalarida faqat birgina omil, inson va uning boshqa odamlarga, tabiatga jamiyatga va davlat tuzumiga bo`lgan munosabati tasvirlanadi, xolos. Shekspir gumazmi mavhum tushuncha emas, balki uning ijodining tub mohiyatini ta`minlaydi.

Shekspir hech shubhasiz uyg`onish davrining buyuk olimlari, faylasuflari bo`lmish Monten, Bekon va Bruno, umuman o`sha davr fani yutuqlaridan bahramand bo`lgan, dramaturgning qarashlari ularning dunyoqarashiga yaqin, ayni zamonda ulardan farq ham qiladi. Shekspir Uyg`onish davrining so`nggi vakili sifatida gumanistlar orzu-istaklarining barbod bo`layotganining guvohi bo`lsa, boshqa jihatdan inson kuchi, qobiliyati, gumanizmning qadr-qimmatiga bo`lgan ishonchini yo`qotmagan edi. Shu boisdan uning ijodida fojia ham, mardinaavorlik unsurlari mavjud. Inson qudratiga va kelajakka ishonch qahramonlikni vujudga keltirgan. Shekspir Yevropa tarixining murakkab davrini aks ettiradi, uslub jihatdan o`sha paytgacha yozilmagan yangi tipdagi tragediyalar yaratdi.

Shekspir tragediyalarining ko`lami keng bo`lib, bu janrni yuzaga keltirgan sabablarning Yevropa miqyosida ekanligi bir ijtimoiy tuzumdan boshqasiga, bir davrdan ikkinchi davrga o`tish yuksak darajaga ko`tarilgan davrning mahsuli edi, ma`naviy taraqqiyot yuqori darajaga ko`tarilgan edi. Lekin bu boy madaniyatdan faqat muayyan doiradagi kishilar bahramand bo`lardi. Asosiy ommaning savodsizligi tufayli Uyg`onish davri erishgan ma`naviy boylik, xalq dunyoqarashiga hamohang bo`lgan yangi g`oyalar ommaga faqat teatr orqali borib yetardi.

Shekspir ijodining birinchi davrida tragediyalar yaratgan edi: birinchisi “Tit Andronik” (1593-1594), eski, Marlo uslubidagi qonli tragediyaga taqlidan yaratilgan; ikkinchisi “Romeo va Julyetta” (1594-1595) lirizm (she`riy, lirik kayfiyatdagi), kulgili o`rinlarning ko`pligi jihatdan dastlabki davr asarlariga yaqin; uchinchisi “Yuliy Sezar”(1599-1600) ikki davr va ikki ijodiy davr o`rtasida yaratilgan yangi turdagi tragediyalardan darak beradi.

Tragediya, fojia elementlari dastavval qadimgi afsonalar (miflar)da mavjud bo`lib, unga Ezgulik Yovuzlik bilan to`qnashganda halok bo`lgan.Qadimgi greklargina tragediyani adabiy janr darajasiga ko`tarib, fojianeing murakkab, jihatlarini namoyon etganlar va Esxil, Sofokl,Evripid ijodida tragediyaning ajoyib namunalari vujudaga kelgan.Lekin grek (yunon)lar tragediyasida muayyan darajada dinning ta`siri mavjud,ya`ni ularning fikriga ko`ra, fojiaga sabab bo`ladigan nuqsonni o`z ixtiyori bilan emas,balki ishtiroki bilan, taqdirga borini ko`radi(“Shoh Edip”dagidek)lekin ayni zamonda grek tragediyasi taqdirga tan berishaga, tushkunlikka emas,taqdirga bo`yin egmaslikka o`rgatgan (“Prometey”misolida). Rimda esa quldorlik jamiyati inqirozga yuz o`girganda rivojlangan Seneka tragediyasida greklarning ulug`vorligi, katta bashariy (insoniy) muammolar qo`yilmaydi, faqat ulg` shaxslarning fojialari tasvirlangan, ulug`vorligi yuzaki ko`rsatilgan, xolos.

Fojia tushunchasini anglab yetish, uni yoritish Shekspir ijodining yetuklik kasb etishiga bog`liq. “Richard”, va “Richard III” kronikalarida va komediyalarida (“Venetsiyalik savdogar”) Yovuzlik va Ezgulik kurashi shu turdagi boshqa

asarlarga nisbatan murakkab tarzda yoritiladi (“Richard III “ Sheylok obrazlari). Biroq ilk davr asarlarida, hatto “Romeo va Julietta “da ham fojia hayotining yuzaki ko`rinishi sifatida tasvirlangan; jinoyatkorlik, fisqu fujurlar ko`p odamlarga azob-uqubat, halokat keltiradi va natijada gunohkorlarning halokati bilan tugaydi. Shekspirning o`ta sermazmun tragediyalarida qahramonlarning chuqur ruhiy kechinmalari ham beriladi. Shekspir inson qalbidagi dard-alamlarning dahshatli manzaralarini yarata oladi. Hamlet, Otello, Lir, Brutlarning ruhiy kechinmalari darajadagi idrok va ularni qurshagan borliq- hayotni anglab yetishning natijasi edi. Shekspir qahramonlarini bir narsa- bir insonning ikkinchi bir insonga bo`lgan munosabati hayajonga soladi (Hamletni larzaga keltirgan narsa faqat otasining o`limi emas, balki”Qanday qilib Klavdiy o`z akasini o`ldiradi?”, “Gertruda darhol qirolni unutsin?” kabi savollar ezadi.).

Shekspir qahramonlarini atrofdagilarning ularga bo`lgan munosabati nihoyatda qiziqtiradi. Ana shu hol dahshatli fojialarni tug`diradi. Tragediyalar qahramonlari Lir va Timon yolg`izlanib qoladi, atrofdagilar ulardan yuz o`giradi. Fojiali qahramonlar ko`p fikr yuritadilar, ongli ravishda harakat qilishga urinadilar, lekin Hamlet va Brutning ongli, oliyjanob harakatlari ularni halokatga olib keladi. “Romeo va Julietta “ tragediyasidagi yomonlikning ildizi qahramonlarda emas, ularni qurshagan tashqi dunyoda, ana shu dunyo bilan to`qnashuvda halok bo`lishadi.”Hamlet “va “Yuliy Sezar” da ham yomonlik qahramonlarda emas, ularni qurshagan hayotda. Ular mavjud tuzumni yaxlitlash uchun kurashadilar. Yovuzlik dunyosi bilan to`qnashuvda halok bo`ladilar.

Inson qalbining yaxshi –yomonligi muammosi Shekspirni butun hayoti davomida qiziqtirib kelgan, uning barcha asarlari shu muammoni yoritishga bag`ishlangan. Dramaturg asarlarida tasvirlangan yomonlikning ko`rinishlari juda ko`p. Uni biror tizimga keltirib bo`lmaydi. Yomon odamlar guruhi ikki turga bo`lindi. Tabiatdan yonom odam bo`lgan (Yago, Edmund) va yomonlik ta`sirida aynigan personajlar (Lir, Makbet). Yomonlikning manbai hayotga muvozanatning yo`qligi, hayot lazzatlaridan hamma birday bahramand bo`lmaganligi, o`sha tuzumdagi nuqsonlarning mavjudligidan. Richard III, Yago, Edmundlar o`zlariga

qurbon boʻlganlarga nisbatan tubandirlar, turli makru hiyla, qabohat, zoʻravonlik bilan yuqori pogʻonaga koʻtarilishga intiladilar. Ularda shuhratparastlik, manfaatparastlik boshqalarni koʻrolmaslik hasad kuchli. Chunonchi, Lirni hokimlik, cheksiz boylik buzadi, u shu boylik tufayli zolimga aylanadi, lekin Timonning saxiyligi talon-tarojlikka, isrofgarlikka olib keladi. Makbet va Koriolan oʻzlarining botirlik, mardliklari tufayli boshqalardan ustun turadi, ular oʻz qadrlarini yaxshi bilganliklari uchun oʻzlarini axloq, davlat qonun-qoidalaridan ustun qoʻyadilar va jamiyat osoyishtaligini buzadilar.

Shekspir tragediyalaridagi asli yaramas odamlar qilgan jinoyatlarida vijdon azobiga tushish oʻrniga oʻz qilmishlaridan mamnun boʻlib yuradilar. Bu tahlit personajlarning hayoti nechogʻlik fojia bilan tugallanmaslik, ular hech kimga achinish tugʻdirmaydi. Brut, Hamlet, Otello kabi oliyjanob qahramonlar, haqiqat yoʻlida boʻlsa ham xunuk ish qilishlari zarurligidan kuchli ruhiy azob chekishga majbur boʻladilar. Hamlet “ Rahmdil boʻlish uchun shafqatsiz boʻlishim shart” deydi. Brut, Hamlet, Otelloning fojiasi faqat ular azoblaridagina emas, ular taqdirining shaxsiy tomoni. Oʻsha qahramonlarning har biri falak gardishi qurbonidir. Ularning fikricha, qurbon berish zarur, Lekin Sezarning oʻldirilishi hukmronlik tamoyili gʻalabasiga chek qoʻygan emas; Ofeliyaning halokati umuman beʼmanilik; Otelloning sadoqat tamoyili uchun eng sadoqatli kishini oʻldirish taqdirning shoʻrish -gʻavgʻosining dahshatidan boshqa narsa emas.

Oʻz vujudiga mavjud yomonlikni anglab yetish Lir va Makbetda fojيانing eng yuksak shaklini tashlik etadi. Aslida ular yaxshi xususiyatlarga ega boʻlgan kishilar, lekin ular qalbida yomonlik ustun. Uni anglab yetgan qahramonlar turlicha azoblanadi. Afinalik Timon Shekspirning boshqa qahramonlaridan farq qiladi. Ular hayotdan muayyan biror narsani talab qilsalar, u bor narsasini berib, evaziga hech narsaga ega boʻlmaydi. Keyinchalik oʻz sahovatining qurboni boʻlgan Timon baxtsizlik va kulfatga duchor boʻlganlarga yordam beradi, biroq oʻzi shunday ahvolga tushganida hamma undan yuz oʻgiradi. Uning ruhiy azobi battar ortadi.

Shekspir asarlarida dramaturgni qiziqtirgan shaxsning fojiasi uning shaxsiy kechinmalari bilangina bo'g'liq bo'lmay, uning jamiyat uchun oqibati qanday bo'lishiga. Ularda inson faqat o'z baxtini yaratish bilan chegaralanmaydi, u jamiyat rivoji uchun kimjavobgardir. Ma'lumki yomonlik jamiyat inson osoyishtaligini buzadi, uni qandaydir jihatdan shikastlaydi. Shekspir asaridagi fojia ijobiy ildizlarga ega bo'lib, jamiyatning barcha tabaqalarini tashvishga soladi, ulardagi tragizm kuchi shunda zotan.

Shekspir yaratgan tragediyalar faqat shaxslar xarakteri to'la va yaxlitlikka ega bo'lgan, lekin ayni zamonda, hayot ulardan ana shu xususiyatlardan voz kechish, unga moslashish taqozo etilgan davrga bunyod etilishi mumkin edi, ana shu holat tragic qahramonlarda ularga xos bo'lgan ikkilanishni yuzaga keltiradi. Ular hayotni goh o'z-o'zlarini anglab yetolmaydilar, borliq ular uchun jumboqday tuyuladi. Ularning dunyoqarashlari bilan hayot o'rtasida anglashilmaslik ko'ndalang bo'lib qoladi. Bunday paytda inson ko'z o'ngida boshi berk ko'cha qad ko'taradi.

Hayotdagi bunday ziddiyatlar Shekspir va uning zamindoshlari ongida hali o'z kuchini butunlay yo'qotmagan edi. Lekin Shekspirdek mutafakkir san'atkor yovuzlikning tub ildizini namoyon etishi kerak edi. U zamonaga xos bo'lgan eng jirkanch xususiyatlar- manfaatparastlik, manmanlik, jamiyatdagi adolatsizlik, zolimlik, tengsizlik, oltinning qudratini anglab yetadi va o'z tragediyalarida fosh etadi.

Hamma tragediyalarning harakat o'rnini butun davlat("Otello" bundan mustasno) bo'lib, konfliktning siyosiy tomoni aniq, ravshan. Konfliktning (ziddiyatning)ildizi ijtimoiy , lekin fojialar insoniy, inson nima uchun va qanday azob chekadi, bu muammo ijtimoiy sabablar bilan bog'liq. Ijtimoiylik insonlarning birikib, davlat vujudga keltirishidir. Lekin inson faqat ijtimoiy xususiyatlarning yig'indisidangina iborat emas. Insonning muhitda, jamiyatda tutgan o'rnini bor, u o'sha muhit va jamiyatda kamol topadi.

Shekspir tragediyalarining falsafiy ahamiyati ba'zan ayrim ziddiyatlarga asoslangan bo'lib, keyinchalik qahramonlar ularga umumiy mazmun,

umuminsoniy ahamiyat beradi. Qahramonlar irodali, idrokli shaxslar, oldilariga qo`ygan maqsad yo`lida bor kuchlari bilan kurashadilar, ana shu kurashda baxtsizlik va musibatga duchor bo`ladilar. Hamlet otasining halokatini, Otello xotinining “sadoqatsiz”ligini, Lir qizlarining ko`rnamakligini, Timon ilk do`stlarining xoinligini, umuman, olamda tartib buzilganligini payqaydilar. Ular faqat o`z baxtsizliklari uchun emas, butun insoniyat musibati uchun qayg`uradilar. Shekspirning tragic qahramonlari hayotda adolat yo`q degan xulosaga keladilar. Yomonlik va jinoyat tug`diruvchi Yago, Edmund singari yaramas odamlarning fikri bir xil, ular xudoga ham, shaytonga ham ishonadi. Boshqalari (Lir, Gloster kabi keksa odamlar) xudo va taqdirga ishonadi. Ko`pchilik qahramonlar yomonlikning negizini topolmaydilar, lekin daho dramaturg har ikkala kurashni rad etgan holda qandaydir qonuniylik mavjud degan fikrga keladi. Yovuzlik va yaxshilikning kelib chiqish sabablari real hayotning o`zida, lekin ularni birdan anglab bo`lmaydi. Masalan, kordeliyaning xatosi otasi (Lir)ga itoat qilmaydi, lekin Dezdemonada hech qanday gunoh yo`q. “Otello” va “Hamlet” tragediyalari qahramonlatida xato yo`q, atrofdagilar aybdor. Shekspir tragediyalarining asosiy, falsafiy konsepsiyasi (asosiy fikri, mohiyati) hayotning tabiiy qonunlarini buzish vayronkorlikka olib keladi, lekin hayot jinoyatchilardan qasos olib, o`z norma (me`yor) larine tiklaydi degan xulosadan iborat. Shekspir tragediyalarining qahramonlari hech qachon kurashdan chekinmaydilar, faqat o`lim ularni harakatdan to`tatadi. Shekspir tragediyalari tarkidunyolikka, umidsizlikka emas, balki adolatsizlikka qarshi kurashga, “chigallashgan koinot”ni (“Hamlet”) tuztishga da`vat etadi. Adibning ulug`ligi gumnizmga sodiqligi shunda zotan.

3.2. “Hamlet, Daniya shahzodasi” fojeasining vujudga kelishi va uning Shekspir ijodidagi o`rni.

Italiyada vujudga kelgan gumanizm tobora Yevropaning boshqa mamlakatlariga ham kirib keldi. Angliyada ham shaharlar taraqqiy eta boshladi, xristianlikning tarki dunyochiligiga tamoman yot bo`lgan yangi dunyoqarash ildiz ota boshladi.

XV asrdagi jangu-jadallar ingliz feodal jamiyatida chuqur krizis(bo'hron)ni yuzaga keltirdi, o'sha hol yangi yo'nalishdagi madaniyat taraqqiyotiga to'g'anoq bo'ldi. Yuz yillik (1339-1453) urush tugashiga ulgurmasdan Qizil va Oq atirgul deb nom olgan o'ttiz yillik (1455-1485) urush boshlanib ketdi va feodal nizolarga sabab bo'ldi. Fransiya bilan bo'lgan urush Shekspir tomonidan "Genri VI" pesayilnomasida o'z aksini topdi, Qizillar va Oq atirgullar urushi esa "Richard III" dramasida aks ettirildi.

Feodal urushlari tugashi bilab XVI asrning oxirida va XVI asrning boshlarida ingliz zaminida gumanizm taraqqiyoti gulladi. Genri VIII amalga oshirilgan cherkov islohoti (1534) o'rta asr mafkurasiga kuchli zarba berdi, o'sha ingliz qirolining rim katolik cherkoviga quyi, o'zini ingliz cherkovining boshlig'I deb e'lon qilishi monastr (rohibxona)larni tarqatib yuborishi o'sha davr diqqatiga sazovor hodisa bo'lgandi.

Yangi dunyoqarash gumanizm yakkahokimlik (monarxiya) istibdodi sharoitida o'ziga muayyan darajada yo'l ochdi, xalq ommasi uchun ma'rifat yo'li bo'ldi, Tyudorlar monarxiyasi katolik cherkoviga qarshi kurasharkan, gumanistlarni qo'llab quvvatladi. O'sha gumanistlar Oksford va Kembridj universitetlarida o'zlariga panoh topishdi. Yirik yevropa gumanistlari Erazm Rotterdamskiy (1466-1536) , Djordano Bruno Angliyani ziyorat qilishadi . Inglizlar muhitida yangi usuldagi olim va mutafakkirlar vujudga keldi, ularning eng ko'zga ko'ringani Tomas Mor (1478-1535) edi. Italyan shoirlari Petrarka (1304-1374) , Areosto(1474-1533) va Torkvato Tasso (1544-1595) ga taqlid qilgan gumanistik poeziya vujudga keldi. Eng buyuk gumanist shoir Shekspirning zamondoshi Edmont Spenser (taxminan 1552-1599) bo'lib, o'zining allegorik (majoziy) dostonlari bilan mashhur edi.

XVI asrning oxirida Londonda doimiy teatrlar paydo bo'ldi, shuningdek, ustuvor teatr truppalari vujudga keldi, professional (kasbi jihatidan) teatrlarga o'zlarining pesalarini yetkazadigan dramaturglar paydo bo'ldi. London chinakamiga mamlakat teatri markazi bo'lib qoldi, shahar va qishloqlarda sayyor

truppalar ham vujudga kelib, xalqqa xizmat qila boshladi, Shekspir “Lord-kamerger xizmatkorlari” truppasining a’zosi edi.

Teatr dunyoni yangicha tushunish maktabiga aylanib qoldi. “Hamlet” tragediyasi taxminan 1600-1601 yillarda yozilgan. 1603-yilda uning birinchi nashri paydo bo’ldi. Lekin unda muallifning nomi ko’rsatilmagan edi. Kelgusi yili ikkinchi nashrida muallifning nomi ko’rsatilgan edi. O’shandan boshlab u sahnaga qo’yildi. 1604-yildagi nashri qisqartirilgan holda beriladi. Tragediyaning umumiy hajmi 3929 misradan iborat.

Asarning asosiy g’oyasi. Tragediyada chirigan olam e’tiqodlariga zarba berilishi, saroy ahli egoizmi, monarx despotizmiga qarshikurashning ifodalanishi. Gamletning: "Tabiatning naqadar ajoyib mo'jizasidir odamzod! Uning zehni naqadar olijanob, undagi qobiliyatlar naqadar bepoyon", - degan fikrlari.

1601- yildan boshlab Shekspir dramaturgiyasida keskin burilish yuz berdi. “Hamlet”dan so’ng “Otello” , “Qirol Lir”, “Makbet”, “Antoniy va Kleopatra”, “Korchalon”, “Afinalik Timon” kabi asarlari vujudga keldi. Lekin o’sha tragediyalarida “Hamlet” alohida o’rin egallaydi. O’sha davrdan boshlab Shekspir dramaturgiyasining tragik payti boshlanadi. Buning uchun Shekspirning shaxsiy hayoti bilan bog’liq saqbablar bormidi degan savol tug’ilishi mumkin. Bunday taxminga o’rin yo’q, Shekspir hayotida fojea yuz bermagan. Aynan o’sha yillarda Shekspir badiiy yetuklik kasb etgan edi. O’ziga to’q jentelmen degan nomga munosib shaharlikka aylangan edi.

Shekspir haqiqiy buyuk adib sifatida o’z davrining ijtimoiy uqubatlarini tushunib olgandi. Shekspirni ko’proq inson taqdiri qiziqtirardi, u inson tabiatining eng go’zal hilqati ekanini chuqur tushunar, uning doimiy tarzda takomillashuvini istardi. Uning aqliy yo’nalishi tomoman o’zgacha edi. Shekspirning tragediyalar yozishining bevosita sabablari mavjud edi. Elizavet Ining hukmronligining so’nggi yillari mamlakat hayotidagi noxushliklarga sabab bo’lgan edi. Hukumatning siyosati o’ta reaksiya tus olgandi.

Shekspir dramaturgiyasining uning fitnalarga tamoman qarshi bo’lganligini ko’rsatadi, faqat “Richard III” va “Makbet” dramalarida qo’zg’alonni ma’qullagan.

Har ikkala pesada ham qahramonlar hokimiyat uchun kurashib, taxtni o'ldirish vositasida egallashgan. Shuni ta'kidlash kerakki, "Hamlet"da ham qo'zg'alon ko'targan Daniya shahzodasi emas, balki, Laert qo'zg'alon ko'taradi. Shekspirga xos tragizmni o'sha davrning muhim zamonaviy hodisalar bilan bog'liq bo'lib, xalqqa zulm o'tkazayotgan mamlakat va davlat siyosatiga xos edi.

Garchi Shekspir tragediyalar ingliz zaminida vujudga kelgan bo'lsa-da, ular tor milliy ahamiyatga ega emasdi, ularda tasvirlangan voqealar boshqa mamlakatlarga ham taaluqli edi. Bir paytlar yevropada, Italiyada paydo bo'lgan kapitalistik tuzum Angilyada o'zgacha tusda rivojlandi, taraqqiyotga to'g'anoq bo'ldi, odamlar ongida ma'naviy krizis boshlandi.

"Hamlet" tragediyasi haqida juda ko'p tadqiqotchilar qalam tebratgan. Lekin ularning hammasi ham Shekspir dramaturgiyasi qonunlarini biladimi? Bu haqda shubhalanish mumkin. Binobarin, tragediyani tushunishga urinishdan avval uning shaklini anglamoq darkor. Asardagi hodisalar, qahramonlarning o'ziga xos qiliqlari, ularning ruhiyati tadqiq etiladi. Bunday yo'l tutish to'g'ri, chunki Shekspir hayot haqiqati san'atkoridir. Lekin shuni nunutmaslik kerakki, u san'atkor, yozuvchi o'ziga bo'lagan davrdan yetib kelgan rivoyatlardan foydalanib asar yaratgan. Shuni yodda tutish kerakki u "Hamlet" so'zining tom ma'nosi bilan aytganda san'atkor tomonidan yaratilgan asar bo'ilib, shunchaki faktlar yig'indisi emas, balki muayyan voqelikni gavdalantirgan shoh asardir. "Hamlet" ni hayot manzarasi sifatida idrok etarkanmiz, uning qahramonini jonli inson sifatida qabul qilarkanmiz, uning buyuk daho tomonidan yaratilgan san'at asari deya e'tirof etamiz, bunday asar yaratisha faqat Shekspirdek daho adibga nasib etadi. Asarning mazmunini to'g'ri tushunmoq uchun uning qanday yozilganini bilish kerak. "Hamlet" tom ma'nodagi poetik (sheri) asar bo'lib, tragediyaning zamirida dunyoga sheri qarash yotadi. Shekspir poeziyasi (sheri) butun jahonni jonlantiradi, ruhlantiradi, o'quvchiga ilhom bag'ishlaydi, unga adibga tabiat ro'shnolik baxsh etadi. Tragediya g'ayri tabii mo'jiza bilan boshlanadi, arvoh (sharpa) paydo bo'ladi, uni ko'rgan soqchilarda u hayajon va hayrat uyg'otadi, ulardan biri Marsel shunday deydi:

Rostdan. Xo'roz qichqirar u xira bo'ldi,
Endi bir etiqod bor, go'yo har qishda
Hazrat Iso bayrami arafasida
Kuni bilan qichqirib turarkan xo'roz.
Deydilarki u kecha arvohlar jim-jit,
Tunlar sokin, yulduzlar beozor bo'lur.
Sehrgarlar, parilar jodu qilolmas,
Shunday ezgu muqaddas vaqt ekan u vaqt
(1-sahna M.Shayxzoda tarj.)

Daniya shahzodasi ana shunday dunyoda yashaydi. Unda ruhlarga, sharpalarga, sehrgarlarga ishonib yashamaydilar, go'yo sayyoralar bevosita kishilar taqdiriga tasir ko'rsatarmish.

Hamlet otasining sharpasi(arvohi)ni ko'rganda shunday xitob etadi:

Ey ilohiy azizlar, najot beringiz!
Sen ruhi yazdonmisan, yo zilli shayton,
Jannatning nafasimi, yo bodi-do'zax,
Niyatingda savobmi yo jinoyat ,
Bu kelishing menga cho'ntak muaamo.

Arvoh:

Otangning arvohiman men...

Sen otangni biron vaqt chin sevgan bo'lsang,
Meni tingla, xo'b tingla, tingla!

Hamlet:

Yo rabbiy!

Arvoh:

Meni ablah o'ldirgan. Qasosimni ol!

Arvoh bilan uchrashgandan so'ng barcha asoslari buzilgan hayotni barcha bo'g'inlari ishdan chiqqan ong shu cholga o'xshatadi, Hamlet ularni joy-joyiga qo'yishi kerak, zamona zayli murakkab, hammaga tushunarli emas, uni qanday bo'lmasin tuzatish zarur. Rozen Krans va Gildenstermning Hamlet bilan qilgan

qadimgi rimliklardagi taqdir ilohasi Fortuna bir necha bor tilga olinadi. Taqdirning mavhum tushuncha qadimul-avvaldan g'ildirakni aylantirayotgan ayol timsolida mujassamlashgan unga tarmashgan kishilarning ayrimlari balandlikka ko'tariladi, ayrimlari esa sira baland ko'tarila olmay tubanlikda qolib ketishadi. Ana shu ham ifodalash shakllaridan biri hisoblanadi.

Misollar keltirish bilan cheklanarkanmiz, shuni takidlash kerakki, tragediyada tasvirlangan dunyo hayot haqidagi hozirgi tasavvurlarga sira o'xshamaydi, unda yashayotgan odamlar hozirgi odamlarga nisbatan o'zgacha fikrlaydi.

Adabiyotshunos A.Anikstning yozishicha, Shekspir Hamlet taqdirining barcha sinchiklab tasvirlanganiga qaramasdan, lekin Daniya shahzodasining taixi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlarni sahnada ko'rsatolgan emas. Harakat davomida har xil hikoya qilishlarga duch kelamiz. Gorasiyo yakkama yakka kurashda hamletning otasi Fortin Brasning otasi ustidan g'olib keladi. Arvoh qanday qilib Klavdiy akasini o'ldirganini hikoya qiladi. Ofeliya otasiga Hamlet bilan uchrashagini bildiradi, Rozenkrans Hamletga poytaxt teatrlarida nimalar yuz berayotganini hikoya qiladi. Mana shunday hikohalar tragediyaning epic elementlariga egaligidan dalolat beradi. Lekin tragediya o'zining o'ta lirikligi bilan farq qiladi. "Hamlet" voqealarga qancha boy bo'lmasin, undagi she'riyat kitobxonni hayratga soladi; Asarning kuchi uning chuqur dramatismiga asoslanadi.

Yirik adabiyotshunos Berdiali Imomov o'zining "Tragediya va xarakter" kitobida shunday deb yozadi: "Janr(tragediya) tabiatidan, uning mifologik xususiyatidan ma'lumki, tragediya bu pesada yoki sahna spektakilida uzulib qoluvchi o'liklar mirdori emas, balki shunday holatlarga kelish jarayonlarida xarakterlar qalbida kechgan azob uqubatli iztiroblarda, psixologik kechinmalar personajlarning qovurilishida". "Hamlet" tragediyasida qahramon hokimiyati tufayli kuchli bo'lgan dushman bilan kurashadi. Buning ustiga u yakkama yakka kurashadi, uning raqibi kuchli, shu boisdan u qahramonlik qiyofasiga ega bo'ladi.

"Hamlet" shunchaki drama emas, balki uning yuksak darajadagi ko'rinishi tragediyadir. To'g'ri, qahramonning kurashi uning halokati bilan tugaydi.

Shunday qilib Shekspirning “Hamlet”I hamma narsani o’z ichiga oladigan nazmiy asar bo’lib, epos, lirika va xususan dramani o’z ichiga oladigan poetik asardir.

Shekspirning tragediyasi ko’zga ko’dinadigan va ko’zga ko’rinmaydigan butun dunyoni o’z ichiga oladi. Tragediyadagi harakat anrigi dunyodan kelgan arvoh bilan boshlanadi. O’shanda Hamlet dunyoni boshqacha tushuna boshlaydi, dunyoni tushunish tarzi o’zgaradi.

Hamletdagi asosiy voqealar ikki oila davlatni boshqarayotgan qirol va vazir(ministr) Poloniy oilasida yuz beradi. Lekin Hamlet oilaviy tragediya emas, voqea butun davlat miqyosida o’tadi.

Garchi tragediyaga narigi dunyo kuchlari aralashsada, lekin Shekspirda ular hech qachon hal qiluvchi rol o’ynamaydi, tragediyadagi harakatga tasir qilmaydi, qadimgi gretsiyadagidek qahramonlar taqdiriga tasir ko’rsatmaydi, grek afsonalarida xudolar hohish-irodasi qahramonlarning qarashlarini bemalol o’zgartirgan.

“Hamlet”dagi harakatning yuzaga kelishi yaqqol ko’zga tashlanadi. Narigi dunyodan kelgan arvohning irodasi tragediyaning manbai ham emas, boshlanishi ham emas. Asosiy voqea Klavdiyning hukmronlikka bo’lgan hirsidan boshlaanadi, ayni zamonda uni Hamletning onasi Gertrudaga bo’lgan muhabbatida. Xuddi “Makbet”dagidek, qahramonni qirolni o’ldirishga sehrGAR ayollar emas, insonga xos shuhratparastlik undaydi. Tragediyadagi arvohning roli (o’rni) shundaki u Hamletga Klavdiy yo’l qo’ygan jinoyatning sirini fosh qiladi, shahzodani qotilni o’ldirishga da’vat etadi. Bordiyu Hamlet otasining o’tmish sirini boshqa biror tarzda bilib olsaydi, o’ch olishni o’z zimmasiga olgan bo’lardi, chinki buni o’sha davr axloqiy urf-odati taqozo etardi.

Klavdiy bilan Hamlet o’rtasida kurash zaminida shaxsiy tuyg’ular va ehtiroslar yotadi. Klavdiyda o’ta ketgan manmanlik tuyg’ulari hukmron shu bois u jinoyatga qo’l uradi. Undan farqli o’laroq, Hamlet shuhratparastlikdan yiroq. U taxtu tojni deb o’zini o’tga –cho’qqa urmaydi.

Hamlet “Daniya zindon” deydi. Rozenkrans unga javoban “unday desangiz butun dunyo-zindon” deydi. Hamlet yanada aniq qilib javob beradi: “Ha, shuning ustiga juda namunali bir zindon. U yerda behisob otxonalar, avaxtalar, chohlar borki, bulardan eng battarini Daniya deb ataydilar” . ROzenkrans: “biz bunga qo’shilmaymiz, shahzoda “ deganda Hanlet g’azab bilan: “Demak, u sizlar uchun zindon emasdir. Zotan dunyoda yaxshi va yomon narsalar o’zi-o’zidan bo’lavermaydi. Faqat bizlargina ularga shunday baho baeramiz. Men uchun Daniya- zindon”. Rozenkrans unga javoban shunday deydi: “Demak sizning g’ururingiz uni nazaringizda zindonday ko’rsatadi. Sizning keng tilaklaringizga bu torlik qiladi”. Hamlet shunday javob beradi: “Yo rabbim! Meni yomon tushlarning azobidan qutqazing-da bir yong’oq po’chog’ining ichiga bandi qiling. Men u yerda o’zimni bepoyon olamning sultoni deb sanagan bo’lar edim!” Bunday deyish bilan u o’zini ozod kishi deb hisoblaydi. Hamlet to’g’risini aytadi, u ayyorlikdan yiroq. Hamlet bilan Klavdiy o’rtasidagi farq asosan axloqiy hol. U akasini o’ldirib, uning xotiniga uylanadi, bu o’ta axloqsizlik belgisi. Klavdiy uchun begona hayot arzimaydigan narsa, Hamletning qayg’usi unga tabiat qonunini buzushdek tuyuladi.

Hamlet bilan Kavdiy o’rtasidagi qarama-qarshilik xilma-xil hayotiy tamoyillarning to’qnashuvi natijasida sodir bo’ladi. Shekspir ijodida mudom shaxsiy manfaatlar kurashida dunyoqarashlar to’qnashuvi ustunlik qiladi. Ana shu hodisa “Hamlet” va boshqa tragediyalarga falsafiy ma’no bag’ishlaydi.

Hamletni tushunish va unga achinish uchun uning hayotiy vaziyatida bo’lish shart emas, balki otasining yovuzlarcha o’ldirilganini hamda onasining erining xotirasiga xiyonat qilganini bilish kifoya . Taqdiri ozgina bo’lsada Hamletnikiga o’xshagan odamlar uni to’g’ri tushunadi va unga achinadi, ha, ma’naviyati baland odamlar uni to’g’ri tushunishadi.

V. G. Belinskiy: “Hamletning timsoli umuminsoniy ahamiyatga molikdir. Yana davom eterkan: “Hamlet!... bu so’zning ma’nosini tushunasizmi, u buyuk va teran, bu insoniy hayot, bu odam sizlar, bu men, bu har birimiz, ozmi ko’pmi, yuksakmi- kulgulimi hammamiz, lekin hamisha ayanchli va g’amgin albatta”.

“Hamlet” tragediyasidagi voqealar asosan Elsinorda, Daniya qirollari qarorgohida bo’lib o’tadi. Pesa matnida ta’kidlanganidek, hamma voqealar Daniyada, bir paytlar Angliyaning muayyan qismini zabt etgan joyda yuz beradi. Ingliz qirollari Daniyaga o’lpon to’laydi xolos. Lekin pesada kitobxon Daniyaga xos bo’lgan hech narsani sezmaydi. Shekspir ataylab voqeani Daniyada kechayotgan qilib ko’rsatadi, Gyote ta’kidlaganidek, Shekspir pesalaridagi voqealar qayerda yuz bermasin, ko’z o’ngimizda hamisha Angliya gavdalanadi, Shekspir tasvirlagan rimliklar aslida inglizlarning o’zginasi, o’z yurtida bo’layotgan adolatsizlikni boshqa joylarga ko’chiradi.

Gyote bexato ta’kidlaganidek, Shekspir qahramonlari dastavval odamlar. Shoir birinchi galda o’z qahramonlarida umuminsoniylikka xos xususiyatlarni aniq va nozik payqagan, u ularni (qahramonlarini) Rim, Skandinaviya va Italiya novellalaridan olgan. Asar sahnada paydo bo’lgan davrni ifodalaydi. Tragediya hech shubxasiz Renessans (uyg’onish) davriga taalluqlidir, chunki o’sha davrda yakka shaxs o’z jasoratini namoyon eta olardi. “Hamlet” tragediyasida tasvirlangan odamlar an’anaviy axloqdan holi, yani siquv ostida emas. Lekin muayyan apparatga molik bo’lgan davlat mavjud edi. Qirollik Elizavettaning monarxiyasi (yakka hukmronligi) qanday bo’lgan bo’lsa Klavdiy boshqarayotgan davlat ham shunday edi, lekin u yakka shaxsni iskanjaga oladigan mutlaq hokimiyat emasdi. Shunday bo’lgach, zamonning o’zgaruvchan xususiyati tragediya qahramoniga ta’sir qilmasdan qolmaydi. Hamletga eski davrdan meros bo’lib qolgan olijanoblik va sodiqlik mavjud, u gumanizm (insonparvarlik) tamoyillari bilan yashaydi.

Personajlarning harakat va replika (luqma) lari tahlili quyidagicha: birinchi pardoning birinchi sahnasi arvohnning paydo bo’lishidan boshlanib, tong chog’ida tugaydi. Ikkinchi sahna ertalab saroyda va kunning yarmida yuz beradi. Ularning hammasini sanab o’tirishning hojati yo’q.

“Hamlet” asari harakati jihatdan katta drammatizmga ega bo’lgan san’at asaridir. U shu xususiyati bilan ajralib turadi, kishini o’ziga maftun etadi. Asarning mazmunini ilg’aganlar undagi muammolar qanday hal bo’lar ekan degan hayolga cho’madi, holbuki, muallif (Shekspir) kishilarning diqqatini jalb etadigan qiziqarli

sahna yaratishni o'zining burchi deb hisoblardi. Shuni unutmaslik kerakki, Shekspirgacha boshqa bir muallifning "Hamlet" asari sahnada qo'yilardi, ammo Shekspir tomoshabinlarning diqqatini zabt etish maqsadida, teatr san'atini teran egallagan dramaturg sifatida pesani qaytadan yozishi va tomoshabinlarning tasavvurini o'zgartirishi shart edi. Shu bois Shekspir asarning g'oyaviy mazmunini qiziqarli qilish maqsadida ishga kirishadi.

Asardagi har bir harakat Hamletning vaziyatining va kayfiyatining o'zgarishi bilan o'tadi, vaqt tig'izligi brogan sayin kuchayib boradi, duel epizodining, yani qahramonning halok bo'lishiga qadar kuchayib boradi. Ba'zan Hamlet o'z vaziyatini murakkablashtiradi, ayniqsa, qirolni o'ldirayapman deya Poloniyni o'ldiradi. Dramatik brogan sayin kuchayib taranglashadi, shunda Hamlet bilan qirol o'rtasidagi adovat yanada avjiga chiqadi.

Hamlet tragediyadagi markaziy figura sifatida oldingi, markaziy o'rinda, undan keyingi o'rinda bo'lsa qirol Klavdiy, qirolicha Gertruda, Ofeliya, Poloniy, Laert turadi. Ular Hamlet bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq, uning taqdiri ularning taqdiri bilan chatishib ketadi. Hamlet va Klavdiy o'rtasidagi munosabatlar boshdan oxirigacha adovatga chulg'angan, ular o'rtasidagi adovat dastavval pinhon keyin esa oshkora kurashga aylanadi.

Hamlet bilan onasi o'rtasidagi munosabatlar ham o'ta ziddiyatli. Hamlet uni zudlik bilan otasining xotirasiga xiyonat qilgani uchun kechirolmaydi. U o'z erini o'ldirgan kishiga erga chiqadi. Hamlet Ofeliyani senardi u ham Hamletni sevardi, biroq uning akasi va otasi ularning bir – biriga yovuqlashishiga halal berishdi. Ha, ijtimoiy vaziyatning teng emasligi ular o'rtasidagi nikohni imkoni yo'qligiga sabab bo'ldi, Ofeliya saroyga mansub xonim, Hamlet esa bor yo'g'I shahzoda, ularning er-xotin bo'lishi nomunosib hol edi.

Klavdiyning malayi hisoblangan Poloniy qirolga yon bosib, Hamletning aqldan ozganligini qirolga uqtirib turardi, uni qirolga qarshi qo'yadi, o'zi (Poloniy) ham shahzodaning o'qidan o'ladi. Poloniyning o'limi Ofeliyaning aqldan ozishiga sabab bo'ladi, bu hol Laertda Hamletdan o'ch olish tuyg'usini uyg'otadi, u uni (Hamletni) qattiq jarohatlaydi.

Qirolning har qanday xizmatiga tayyor bo'lgan Rozenkrans va Gildensterndan Hamletga qarshi kurashda foydalanadi. Avvalo ularga josuslik vazifasi yuklatiladi, ular Hamletni xibsga oladilar, nihoyat Hamletni Angliyaga jo'natish topshiriladi. Rozenkrans va Gildensbern vaziyatning nimadan iboratligidan bexabar, Poloniyga o'xshab qiroлга xizmat qilish bahonasida halok bo'lishadi.

Uchinchi guruhga Hamlet va Klavdiy o'rtasida kurashda bevosita ishtirok etuvchi shaxslar kiradi. Bunday shaxslardan biri shahzodaning do'sti Goratsio bo'lib, u bosh qahramonning eng yaqin do'sti sifatida tasvirlanadi. qiroл va Hamlet o'rtasida ro'y berayotgan kurashning mohiyatini faqat o'sha biladi.

Uchinchi guruh (Plan) dagi muhim shaxs – Norveg shahzodasi Fortinbryasdir. U sahnada bor yo'g'I ikki marta paydo bo'ladi, lekin uning tragediyadagi roli u bilan belgilanmaydi. Uning (Fortenbras) dunyosi Daniya sarhadlaridan tashqarida. Lekin uning borligi bilan daniyaliklar ham hisoblashishga to'g'ri keladi. Dastavval u Daniyaga hujum qilib otasidan tortib olingan yerlarni egallashni mo'ljallaydi degan fikrga boradilar. Lekin u bu niyatidan qaytib, Polshaga yurish qiladi. Uyerdan Daniya orqali qaytayotib, Klavdiyning Hamletga qarshi kurashda o'lganidan xabardor bo'ladi, ayni zamonda o'layotgan qiroлning Daniyaning yangi qirolini saylagani haqidagi ovozini eshitmadi.

Personajlarning to'rtinchi guruhiga tragediyaga tasodifan daxldor kishilar kiradi. Chunonchi, tun qorovulligini o'tayotgan Bernardo, Marsel va Fransiskolar bo'lib, arvohni birinchi bo'lib ko'rganlar; bundan tashqari, saroybonlar Korneliy va Voltimand, Norvegiyaga yuborilganlar; Poloniy ishonchli shaxsi Reynaldo bo'lib, u Parionga Laertni kuzatib yuradigan joyda Angliyaga jo'nab ketish oldidan Hamlet bilan suhbatlashayotgan Fortinbras qo'shinidagi kapitan Ofeliyani dafn etayotgan go'rkovlar; dafn marosimini o'tkazgan ruhoniylar Hamletning Daniyaga qaytishi haqidagi xabarni yetkazgan matroslar Hamletni Laert bilan do'stona yakkama – yakkaga kurashga taklif qilgan Ozrik va ikkinchi d voryan shular jumlasidandir.

Muallif tragediyada ishtirok etuvchilar o'rtasida faqat bitta personaj-arvoh uchun joy belgilamaydi, chunki u zaminij jonzot emas. U (arvoh) harakatdan tashqari, lekin uning o'limisiz tragediya vujudga kelmas edi. Hamletning tragediyadagi markaziy o'rni syujetdagi asosiy narsa o'ldirilgan qirolning qasos (intiqom) ini olish, bu Hamletning zimmasidagi burch, farzandlik burchi. Tragediyadagi 20 sahnaning 12 tasida Hamlet ishtirok etadi. Shunday qilib Hamlet tog'ridan – to'g'ri yoki bilvosita barcha sahnalarda namoyon bo'ladi. Qirol saroyga mansub shaxslarning hammasi bilan fikr alishmaydi, u qirolicha, shahzoda, vazir Poloniy va uning o'g'li Laert bilan, Ofeliya bilan Norvegiyaga yuborilayotgan Korneliy va Voltiman, shuningdek, Rozenkrans va Gildenstern bilan fikr almashadi.

Qirolning saroydagi yaqinlari bilan ham fikr almashadi qirolich, shaxzoda, vazir Poloniy, uning o'g'li Loert, Ofeliya kabilar shular jumlasidandir. Hamlet ham saroy a'yonlari bilan birmuncha fikr almashadi. Gap shundaki Hamlet atrofdagilar bilan demokratik vaziyatda suhbatlashadi.

Qirol oilasi asosan tragediyaning markazini tashkil etadi: Klavdiy, Gertruda, Hamlet va barcha xarakat uzra parvoz etayotgan arvoh (o'ldirilgan qirolning arvohi).

Poloniy Hamletga qarshi kurashda qirolga yordam beradi. Hamlet Poloniyni o'ldiradi, shunda Ofeliya aqldan ozadi. Otasining o'chini olish uchun Laert Fransiyadan qaytadi, Ofeliya dafn etilmasdan burun Laert bilan Hamlet o'rtasida to'qnashuv boshlanadi, u shahzodani o'ldirmoqchi bo'ladi.

Polshaga qarishdan qaytgan Norveg qirol Daniya qirolligi sulolasining halokati guvohi bo'ladi. Fortinbras bir paytlar otasiga tegishli bo'lgan Daniya taxtining vorisi sifatida Daniya qirol bo'ladi.

3.3. Shoh asar “Hamlet” ning qiyosiy tarjimasi haqida

Vilyam Shekspirning shoh asari “Hamlet” hozirgi kunda ham kitobxonlarni hayajonga solib kelmoqda. “Hamlet” Shekspir ijodining cho'qqisidir. Daniyaning afsonaviy shahzodasi Hamlet haqida ingliz Uyg'onish davrida yaratilgan pyesalardan tashqari qadim davrlarda bitilgan bir qancha adabiy asarlar, xronika va

afsonalar bo'lgan. Shekspir tragediyasi mazmunini tashkil etadigan voqealar dastlab Snossri Sturlusun tuzgan island sagalari to'plamida (1222-1223) uchraydi. O'rta asrdagi daniyalik tarixchi Sakson Grammatik "Daniyaliklar tarixi" asarida shahzodaning qasosi haqida yozar ekan, bu mamlakatda xristian dini qabul qilinishidan avval (827) ro'y bergan deb ko'rsatgan.

"Hamlet" tragediyasi o'zbek tiliga iste'dodli shoir Maqsud Shayxzoda va O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tomonidan tarjima qilingan va o'zbek kitobxoniga taqdim etilgan. Jahon so'z san'ati durdona asarlarining o'zbyek tilida jaranglashi – vatan adabiyotining yutug'i. Ayni jihatdan biz har qancha faxrlansak arziydi. Chunki dunyoga mashhur asarlarning asosiy qismi allaqachon xalqimizning ma'naviy mulkiga aylanadi. Bu borada O'zbekiston xalq shoiri, syerqirra va syermahsul tarjimon Jamol kamolning xizmatlari byeqiyos. U bir necha tarjimon umri bo'yi qila olishi mushkul bo'lgan kyeng ko'lam va katta miqyosdagi tarjimalarni bir o'zi amalga oshirdi – 30 ga yaqin alohida asar va 20 dan ortiq shoir shye'rlarini o'zbyekchalashtirdi.

Albatta, Jamol Kamol syerqirra istye'dod sohibi – u elimiz ardog'idagi hassos shoir, u – nuqtadon adabiyotshunos olim, filologiya fanlari nomzodi, u – kyeng qamrovli va syermahsul tarjimon. U bu sohalarning barchasida ham e'tiborga sazovor yutuqlarga erishgan. Lyekin salmog'i va ahamiyatiga ko'ra tarjima uning ijodiy faoliyatida yetakchi o'rin tutadi.

Jamol Kamol badiiy ijodda faqat lirik turda ijod qilgan – shye'ru dostonlar, g'azalu ruboiylar yozgan shoir bo'lsa, tarjimada uning yangidan – yangi qirralari namoyon bo'lib, ham shoir, ham nosir, ham dramaturg sifatida shye'riy, nasriy va dramatik asarlarni birday mahorat bilan tarjima qilib kyelmoqda.

Jamol Kamolning aksariyat tarjimalari ana shunday yuksak saviya va go'zal darajada bo'lib, ular allaqachon o'zbyek xalqining ma'naviy mulkiga aylanib ulgurgan, milliy adabiyotimizning oltin fondidan joy olgan. Hozirgi o'zbyek adabiyotini Jamol Kamol tarjimalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Jamol Kamol tarjimalari janr jihatidan ham chyegaranmagan – u roman, qissa, hikoyat, drama, doston, g'azal, ruboiy, sonyet, ertak, rivoyat kabi ko'plab

janrdagi asarlar tarjimasida qalamini sinab ko`rib, ularning barchasida muvaffaqiyatga erishgan.

Albatta, Jamol Kamol tarjimalari bir qator kamchiliklardan ham xoli emas. Aytaylik, arab – fors so`zlari, forsiy ibora – izofalarning ba`zida mye`yoridan ortiq qo`llanishi, matnni birmuncha erkin talqin qilish, gohida asliyat ma`nosini to`liq aks ettirishdan ko`ra tarjimaning o`zbyek tilida jaranglab chiqishi uchun intilish, ma`noga taqaluvchi ayrim xato – kamchiliklar, goh – goh misralarning tushib qolishi, tasavvuf istilohlari ifodasi bilan bog`liq qator qusurlar, ba`zan milliy bo`yoqning haddan tashqari quyuqlashib kyetishi, Jamol Kamol tarjimalarining salmog`i, qaysi tillar va adabiyotlar, qaysi janrlar va uslublardan amalga oshirilganligi xususida umumiy ma`lumot byerib, tarjimonlik mahoratining ayrim qirralarigagina to`xtalib o`tdik.

Bu ikki muallif sharofati bilan biz bugun dunyoga mashhur tragediyani o`zbek tilida ham mutolaa qilish imkoniyatiga egamiz. Maqsud Shayxzoda ushbu tragediyani vosita til-rus tilidan o`giran bo`lsa, Jamol Kamol bevosita ingliz tilidan tarjima qilgan. Maqsud Shayxzoda rus tilidan tarjima qilgan bo`lsa-da, asliyatdagi ruhni his eta olgan va uni tarjimada qayta yarata olgan. Ikkala tarjimani tahlil qilar ekanmiz, har ikkala tarjimon ham o`z tarjimalarida Shekspir davri nafasini tuya olishgani, o`girish jarayonida bunga katta ahamiyat berishganiga guvoh bo`lamiz. Zero, bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilish bu-asliyatni aynan takrorlash emas, balki uning asosiy qiymati to`g`risida to`la tasavvur yaratishdan iboratdir. Yaxshi tarjimon shunga intiladi. Buni tarjima imkoniyati ko`tara oladi. Badiiy tarjimaning san`at sifatidagi mohiyati ham ana shunda.

Shayxzoda Pushkinning «Mis chavandoz», Lermontovning «Kavkaz asiri», Mayakovskiyning «Juda soz» poemalari va ko`plab she`rlarini, Shekspirning «Hamlet» va «Romeo va Juletta» tragediyalarini va sonetlarini, Nozim Hikmatning she`rlarini, ozarbayjon shoirlari asarlarini o`zbek tiliga ag`dardi. Shayxzodaning o`zbek adabiyoti tarixi, o`zbek xalq og`zaki ijodiyoti, xususan Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasida yaratgan ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir. U

filologiya fanlari nomzodi, dotsent ham edi.M.Shayxzoda faoliyatida tarjima alohida o`rin tutadi. U Nizomiydan, Shota Rustavelidan, Jomiydan, Pushkindan, Bayrondan, Lermontovdan, Nekrasovdan, Shevchenkodan, Jambuldan, M.F.Oxundovdan, Samad Vurg`undan, Ilya Chavchavadzedan, Avetik Isaakyandan, Sulaymon Stalskiydan, Rasul Rizodan, Usmon Sorivalidan, Lohutiydan, Maxtumqulidan, Tixonovdan, A.Surkovdan, Petrus Brovkadan adabiy tarjimalar qiladi.

Maqsud Shayxzodaning o`zbek adabiyoti, madaniyati ravnaqiga qo`shgan hissasi mustaqil O`zbekiston va uning hukumati tomonidan munosib e`zozlanadi. Qator maktab va ko`chalar uning nomi bilan ataladi. U “Buyuk xizmatlari uchun” ko`krak nishoni bilan taqdirlandi.Shayxzoda asarlari qardosh xalqlar va xorijiy tillarga tarjima qilingan. Shoir tarjima jarayonida qardosh xalqlar va jahon adabiyoti klassiklarining mahorat maktabidan ta`lim oldi, ilg`or an`analarini o`zida mujassamlashtirgan she`rlar yozdi.

Asar o`zbek tiliga mohirona talqin etilgan. Ikkala tarjima ham shaklan bir-biriga o`xshab ketsa-da, voqealar mazmuni o`sha. O`zbek tili so`zga boy til. Qilingan tarjima jarayonida ishlatilgan so`zlar buni yaqqol isbotlaydi. Ko`p o`rinlarda deyarli aynan bir ma`noni bildiruvchi boshqa-boshqa shaklli so`zlar-sinonimlardan o`z o`rnida foydalanilganining shohidi bo`lamiz. Bunda zamon va makon e`tiborga olingan, albatta.

Bernardo

Long live the king!

Bernardo

Yashasin qirolimiz! [M.Shayxzoda tarjimasi]

Bernardo

Да здравствует король! [B.Pasternak tarjimasi]

Bernardo

Omon bo`lsin qirolimiz! [J.Kamol tarjimasi]

Vaholanki, ushbu jumladagi “yashasin” va “omon bo`lsin” iboralari o`sha mazmunni bera olgan.

Jamol Kamol tarjimasida badiiylilik o'z maromiga yetkizib berilgan. Voqelikni o'quvchi ko'z o'ngida gavdalandira oluvchi qo'shimcha unsurlardan foydalangan. Bu esa o'z o'rnida asarning o'qimishlilikini oshirgan.

Elsinore a platform before the castle. Francisco at his post. Enter to him Bernardo.

Elsinor. Qasr oldida maydoncha. Yarim kecha. Fransisko poyloqda turibdi. Soat o'n ikkini urmoqda. Bernardo uning yoniga kelib qoladi. [M.Shayxzoda tarjimasi]

El'sinor. Площадка перед замком. Полноч. Франсиско на своем посту. Часы бьют двенадсат. К нему подходит Бернардо. [B.Pasternak tarjimasi]

Elsinor. Qasr oldida kungirador devor bilan o'ralgan tor maydoncha: o'ng va so'l yoqda minoralar ham ularning eshiklari. Yulduzlar charaqlab turibdi. Havo juda sovuq.

Oybolta bilan qurollangan Fransisko qorovulda turibdi; u yoqdan bu yoqqa yurib turadi. Soat o'n ikkiga zang uradi. Qasrdan xuddi shunday qurollangan ikkinchi soqchi-Bernardo chiqib keladi; u Fransiskoning qorong'ulikdagi qadam tovushlarini eshitib to'xtaydi.

Jamol Kamol tarjimasini ko'zdan kechirar ekanmiz, asl matndagi jummalarga biroz boshqacharoq tus berilganligini kuzatamiz. Tarjimaning bu tarzda talqin etilishi asliyat tili ta'sir doirasining pasayishiga olib kelmaydi, aksincha kitobxonning voqelikka chuqurroq kirib borishiga, kengroq tasavvurga ega bo'lishiga turtki bo'lgan. Badiiy tarjimada bu oddiy holat, muhimi, mazmundan uzoqlashilmasa bo'lgani. Tarjima-asliyatni aynan berish san'ati emas. Bu umuman nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham mumkin bo'lmagan ish. Tarjima jarayoni ijodiy jarayon bo'lib, mazmunni qayta tiklash, qayta yaratish san'atidir. Bundan Kamol Jamol ustalik bilan foydalana olgan.

Atoqli otlar ingliz tilidan o'zbek tiliga aynan o'z holicha tarjima qilinadi. Kishilarga va narsa-buyumlarga qo'yilgan nomlar qaysidir ma'noda o'zida milliylikni mujassam etadi. Boshqa tildagi nomni ona tiliga moslab o'girish asl matn mazmunidan chetlashishga va umuman boshqa bir yangi asarning yuzaga

kelishiga olib keladi. So'nggi paytlarda adabiyotlarda ismlar chet tilidan tarjima qilinganda "G" va "H" harflarining ishlatishdagi muammosiga duch kelamiz. Ko'rib chiqayotgan tarjimalarimizda ham uchratamiz.

Goratsio-Horatsio

Gamlet-Hamlet

Gertruda-Hertruda

Gekuba-Hekuba

So'zning kontekstdagi emotsional ekspressiv xossalari har bir adabiyotda o'ziga xos tarzda kechadi. Ammo bu o'ziga xoslikni keltirib chiqargan faktorlar aslida muvofiq va mushtarak xarakterda bo'ladi. O'zga tillardan tarjima qilish jarayonida mazmun va obrazni maksimal darajada to'la qayta tiklash uning asl nusxa matnidan, uning so'zlaridan iloji boricha qochish va shu orqali uning ruhiga kirib boriladi.

Hamlet Marsellga yuzlanar ekan unga "good Marcellus" deya murojaat etadi. Buni Maqsud Shayxzoda "do'stim Marsell" tarzida, Jamol Kamol esa "Marsell og'aynim" deb o'g'irgan. Ingliz tilidagi "good" so'zi to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilganda "yaxshi" ma'nosini beradi. Aslida sifat turkumidagi bu so'z tarjimada otlashgan tarzda do'st, og'ayni deya o'girilgan. Badiiy tarjima jarayonida ko'plab so'zlarning ma'nosi kontekstdan kelib chiqib tarjima qilinadi. Misol qilib oladigan bo'lsak, asardagi "thing" so'zi mualliflar tomonidan "ajoyibot", "g'aroyibot" tarzida berilgan. Aslida bu yerda gap Horatsio, Bernardo va Marsellga ko'rinish bergan arvoh to'g'risida boradi.

Tarjimalarni ko'rib chiqar ekanman Maqsud Shayxzoda tomonidan qilingan tarjima ba'zi joylarda rus tilidan qilinganligi sezilib turadi.

Marcellus

Peace, break thee off ; look, where it comes again!

Marsell

Sss...Jim turgin. Ana boq tag'in u arvoh! [M.Shayxzoda tarjimasi]

Jim turish ma'nosini beruvchi sss tovushi ko'proq rus tiliga xos.

MarSell

Молчи, замри

Гляди вот он опять. [B.Pasternak tarjimasi]

King Claudius

Take thy fair hour, Laertes;

time be thine,

and thy best graces spend

it at thy will!

But now my cousin

Hamlet, and my son

Qirol

Soat qulay, baxting yor bo'lsin, ey Laert.

Ta'bing nechuk xohlasa, shunday yuraver.

A, Hamlet-chi? Nima der jigarporamiz? [M.Shayxzoda tarjimasi]

Король

Ищите счастья

В добрый час Лаерт

Как вздумаете

Проводите время

Ну как наш

Гамлет, близкий сердцу сын? [B.Pasternak tarjimasi]

Hamlet

Tfu,la'nat! uyg'ongin ey mening zehnim!qaydadir eshitgandim: go'yo o'tmishi

Qorong'u bo'lgan kishi o'z qilmishiga o'xshashlik bir o'yinni tomosha qilsa-

Serpayib o'z aybiga iqrор bo'larkan. [M.Shayxzoda tarjimasi]

Tungi poyloqda turgan ikki soqchi arvozni ko'rib qolishadi. Shunda Bernardo:

“In the same figure like the king that's dead” deydi. Ushbu jumladagi “figure” so'zini Jamol Kamol “savlat” so'zi bilan, Maqsud Shayxzoda esa “qiyofa” so'ziga almashtirgan.

Savlatidan-xuddi marhum qirolning o'zi [J.Kamol tarjimasi]qiyofasi-rahmatlik
qirolning o'zi [M. Shayxzoda tarjimasi]

Savlat so'zini qo'llash bilan J.Kamol qirollarga xos barvastalik, kelbatni
ko'rsatgan.

Maqsud Shayxzoda tarjimasida ko'p hollarda notanish so'zlarga izoh berib
o'tgan.

Qirol

Qani shveysarliklar [u davrlarda Yevropadagi podshohlar o'zlariga saroy
soqchisi qilib ko'pincha shveysariyalik sipohiylarni yollab olar edilar]

Hamlet

E –sen, bani Isroilning qozisi Evfiy [Tavrotning rivoyatiga ko'ra
yahudiylarning qozisi Evfay degan shaxs o'z yagona qizini qurbonlikka qo'ygan.
Hamlet Poloniy ham o'z qizi Ofeliyani Hamletga qarshi fitnalarda qurbon
qilishga tayyor ekaniga ishora qiladi]

Marsellning arvohni ta'rif etishi yuksak darajada tarjima qilingan

Marcellus

Tis gone!

We do it wrong, being so

majestical,

to offer it the show off

violence

for it is,as the air,

invulnerable

And vain blows

Malicious mockery

Marsell

Ketdi!

Uning podsholik izzat-nafsiga

Og'ir botdi biz ko'targan bepisand chuvvos

U bug' kabi daxlsizdir, bizning zarbamiz

Havoga tig' urgan kabi behuda, xolos [J.Kamol tarjimasi]

Marsell

Ketib qoldi. Bizdagi bu zo'ravonlik

U shohona hazratga og'ir haqorat

U havoda bug' kabi ushlanmaydigan

Bizning qilich zarbimiz-masxara, xolos

Adabiyotimizda tong otish jarayoniga juda chiroyli ta'riflar beriladi. Xususan,tong otishini tarjimada ular shunday berishgan:

Goratsio

Endi qo'ying. Ana tong alvon libosda

Adirlarning shabnamin toptaydi sharqda. [M. Shayxzoda tarjimasi]

Horatsio

Ana, alvon yaktgini sudrab subhidam-

Shabnam bosib sharq ufqidan kelmoqda ildam. [J.Kamol tarjimasi]

Tarjimalarni tahlil etar ekanmiz, undagi bir-ikkita so'zning qo'llanishidagi tushunmovchilikka duch kelamiz:

King Cladius

And now, Laertes, what's

The news with you?

Qirol

Xo'sh aytingchi,Laert, nechuk yangiliklar bor?

Odatda "nechuk" so'zi "nega, nima sababdan" ma'nolarida qo'llaniladi. Bu jumlaning o'z holicha tushunadigan bo'lsak "Laert, nega yangiliklar bor?" deganimi bu?

Qirol

A, Hamlet-chi? Nima der jigarporamiz?

Maqsud Shayxzoda bu o'rinda juda mos keluvchi "jigarpora" so'zini qo'llagan. Sababi otasining o'limi, onasining esa hali murda sovumay turib o'z akasining qotili bo'lmish amakisiga turmushga chiqib olishi Hamlet yuragini ming bir bo'lakka bo'lib tashlagan edi.

O'xshatishlar, sifatlashlar tarjima jarayonida ko'plab qo'llanilgan.

King Claudius

How is it that clouds still hang on you?

Qirol

Nega yana yuzingda bulut soyasi? [M.Shayxzoda tarjimasi]

Король

Опять покрыто тучами лицо? [B.Pasternak tarjimasi]

Qirol

Ajab hali arimabdi yuzingdan bulut? [J.Kamol tarjimasi]

Tarjimalar ma'nosi o'zgarmasa-da, gapni o'girish usullari turlicha. Maqsud Shayxzoda so'roq gapni "nega" so'roq so'zi orqali ifodalagan bo'lsa, Jamol Kamolda so'roq so'zlarga murojaat etilmay, ohang bilan so'roq gap hosil qilingan. "to hang cloud on face" iborasi bizlarda mos keluvchi ekvivalentlari sifatida "qovog'idan qor yog'moq" iborasini olish mumkin. Tarjimadagi "bulut" va "bulut soyasi" aynan shu ibora o'rnida ishlatilgan.

Endi Hamlet tilidan olingan manabu parchani tahlil qilsak:

Hamlet

O, that this too solid

flesh would melt

thaw and resolve itself into a dew!

Hamlet

Koshki, shu go'sht to'rvasi mahv bo'lsa tamom

Yo erisa, chirisa yoki bug' bo'lsa

Хамлет

О если б ты,

Моя тугая плоть

Могла растаять

Сгибнуть, испариться [B.Pasternak tarjimasi]

Hamlet

O, koshkiydi shu zil gavda, shu bir xalta go'sht

Irib-chirib ketsa, shabnam bo'lib taralsa [J.Kamol tarjimasi]

Maqsud Shayxzoda tarjimasi rus tilidan qilingan tarjimaga yaqinligi ko'rinib turibdi. Jamol Kamol tarjimasida esa qiziq holatga duch kelamiz. Odatda chirigan narsadan yaxshi hid taralmaydi. Ammo, muallif bu holatda Hamlet atrofidagi nopokliklar ketib, gullarning atri atrofni tutishi, yaxshilikka umid bag'ishlash uchun shu so'zni tanlagan bo'lsa ne ajab.

Odatda sodiqlikni ifodalash uchun “sodiq qulingiz” iborasi qo'llaniladi.

Horatio

The same my lord, and
your poor servant ever

Goratsio

Xuddi o'zi, shahzodam, sodiq bandangiz [M.Shayxzoda tarjimasi]

Horatsio

Xuddi o'zi, to o'lguncha sodiq qulingiz [J.Kamol tarjimasi]

Maqsud Shayxzoda tarjimasida bu sodiq banda sifatida berilgan. Aslini olganda “banda” ojiz so'zi bilan kelib, “ojiz banda” iborasi ko'rinishini oladi.

Aza va to'y marosimi o'tgach, arvoh haqida shahzodaga aytish uchun Goratsio, Marsell va Bernardolar kelishadi. Shu o'rinda Goratsioning nutqi tarjimasiga nazar solamiz:

Horatio

Indeed, my lord, it followed
hard upon

Goratsio

Ha, bu gap rost. To'y juda tez bo'lib qoldi. [M.Shayxzoda tarjimasi]

Горацио

Да, правда, это следовало быстро [B.Pasternak tarjimasi]

Horatsio

Ha, darvoqe, o'sha nikoh; ajab muncha tez? [J.Kamol tarjimasi]

Jamol Kamol Goratsiio tushgan ahvolni shunchalik yaxshi anglaganki, tarjimada Hamletning otasi janozasiga kelganligiga urg'u berib, to'y haqida gapirib

uni ranjitishni xohlamagandek taassurot qoldiradi. Birinchi tarjimada esa rus tilidagi kabi qisqa va oddiy javob berilgan. Goratsio har ikkala voqeadan xabardor-u, ularni aytishdan istihola qilmaydi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi o'lchov birliklarining Hamish ham ekvivalenti topilavermaydi. Uni turli yo'llar bilan o'girish mumkin. Xuddi asardagi kabi. 'truncheon length' iborasi keltirilgan bo'lib, tarjimonlar uni "bir nayza bo'yi masofa" [J.Kamol] va "bir quloq nari" [M.Shayxzoda] tarzida o'girishgan.

Truncheon-militsiya tayog'i. militsiya tayog'i esa biroz kaltaroq.

